

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS

TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida

Musaev Akmalbek Ibragimdjanovich

MAVZU: «TARJIMADA TABIAT MANZARALARINI TASVIRINI

QAYTA YARATISH MASALASI»

Mutaxassislik: 5A220101-Adabiyotshunoslik (Ingliz adabiyoti)

MAGISTRLIK DISSERTASIYASI

Adabiyotshunoslik magistri akademik darajasini olish uchun

Ish ko'rildi va himoya qilishga ruxsat berildi:

Ilmiy rahbar:

dots., R. Karimov

Ingliz tili va leksiska-stilistika

kafedrası mudiri:

p.f.n., S.Misirov

Ilmiy maslahatchi:

f.f.n. Q. Sidiqov

«_____» _____2012 yil

NAMANGAN-2012

MAVZU: TARJIMADA TABIAT MANZARALARINI TASVIRINI QAYTA YARATISH MASALASI

KIRISH.....	2
I BOB. TARJIMA JAROYONIDA VUJUDGA KELADIGAN MUAMMOLAR TAXLILI.....	12
I.1 Tarjimada milliylikni aks ettirish zarurati, shartlari va uchrab turadigan qiyinchiliklar.....	12
I.2. Tarjimada shakl va mazmun birligining qayta yaratilishi.....	22
I.3. Badiiy tarjimini qayta yaratishda mantdagi realiyalar o'zni va ahamiyati.....	27
II .BOB. Z.M. BOBURNING «BOBURNOMA» ASARI TARJIMASI HUSUSIYATLARI.....	35
II.1. «Boburnoma» G'arb va Sharqning mustaxkam ma'naviy ko'prigi.....	35
II.2. Boburnoma asari tarjimalarida vatan tuygusi ifodalanishi.....	53
III. BOB . «BOBURNOMA»NING INGLIZCHA TARJIMALARIDA TABIAT MANZARALARI TASVIRINI QIYOSIY TAHLILI.....	60
III.1. «Boburnoma»da joylar va tabiat manzaralari tasviri.....	60
III.2 . «Boburnoma»ning inglizcha tarjimalarida tabiat manzaralari tasvirini qiyosiy tahlili.....	71
XULOSA	76
SUMMARY.....	78
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	83

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi O'zbekiston Respublikasining xalqaro munosabatlari keng quloch yoyayotgan bir paytda chet tillarni o'rgatish-o'rganish o'ta zaruriy ehtiyojga aylandi. Ushbu masalaning muhimligini alohida uqtirib, mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov shunday degan edi: «Hozirgi paytda xorijiy tillarni o'rganish va o'rgatishga yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Bu ham, albatta, bejiz emas. Bugun jahon hamjamiyatidan o'ziga munosib o'rin egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo'qdir» (I.A.Karimov, 1997).

O'zbekistonda uzluksiz ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar natijalari, erishilgan yutuqlar, yuksak salohiyatli avlodni tayyorlashda davlatning rolini xalqaro jamoatchilikka keng ma'lum qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan 2012 yil 16—17 fevral kunlari “Bilimli va aql-zakovatli avlodni tayyorlash—mamlakatni barqaror rivojlantirish va modernizatsiyalashning muhim sharti” mavzusidagi xalqaro Konferentsiya o'tkazildi.

Konferentsiyada 1000ga yaqin odam ishtirok etib, shundan 300 dan ortig'i - 49 xorijiy davlatlarning va 9 xalqaro tashkilotlarning, ta'lim va ilmiy muassasalarning, olimlar va ta'lim, fan, madaniyat sohasining vakillaridir.

Konferentsiya doirasida qatnashchilar umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar, oliy ta'lim muassasalari faoliyati bilan tanishdilar, shu bilan birga, ta'lim sohasidagi islohotlar va islohot natijalarini ta'lim sohasiga tadbqiq etishga bag'ishlangan ko'rgazmani borib ko'rdilar. Konferentsiya ishtirokchilarini O'zbekistonning boy tarixi, san'ati

va madaniy yodgorliklari bilan tanishtirish maqsadida qadimiy shaharlarimiz Samarqand, Buxoro va Xivaga tashrifi rejalashtirilgan¹.

Konferentsiya ochilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ishtirok etib, nutq so'zladi.

Forum olti sho'ba ish olib bordi.

1. Maktab ta'limi – intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash asosi.
2. Kasbiy ta'lim va hozirgi mehnat bozorini shakllantirish.
3. Oliy ta'limni rivojlantirish ustivorliklari va mamlakatni modernizatsiyalashda uning roli.

4. Ta'lim jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

5. Ta'lim va fan – uzluksiz aloqa.

6. Ta'lim va madaniy taraqqiyoti.

Mazkur konferentsiya O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to'g'risida"gi qonunlarining amalga tadbqiq qilinishi, O'zbekistondagi uzluksiz ta'lim tizimida shakllangan yo'nalishlarni aniqlash va yaqin kelajakda hal qilinishi zarur bo'lgan masalalarni belgilash, ta'lim shakli va mazmunini takomillashtirish, kadrlar tayyorlash sifatini oshirish bo'yicha hamda shu sohadagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirish borasida o'zaro tajriba almashish va kelishilgan tavsiyalarni ishlab chiqish imkoniyatini berdi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston ta'lim tizimida ulkan tarkibiy, tashkiliy va mazmuniy o'zgarishlar ro'y berdi. Eng asosiysi, u chindan ham zamonaviy talablarga javob beradigan "ta'lim - butun hayot davomida" paradigmasiga muvofiq uzluksizlik va izchillik kasb etdi.

O'zbekistonning ta'lim muassasalari mamlakatda amalga oshirilgan demokratik va bozor munosabatlari jarayoniga mustahkam bog'lanib, xalqaro ta'lim hamjamiyati bilan astoydil yaqinlashmoqda. Bu muassasalar, xuddi oynaday, O'zbekistondagi hamma ijobiy o'zgarishlarni aks ettirmoqda. Shu bilan birga, qiyinchiliklarni ham boshdan kechirmoqda, ammo kelgusida davlat va jamiyat oldida paydo bo'ladigan muammolarni bartaraf qilib, hal qilmoqda.

O'zbekistondagi bugungi uzluksiz ta'lim tizimi - bu turli xildagi ta'lim muassasalari majmui - zamonaviy o'quv binolari, ilmiy laboratoriya qurilmalari, ijtimoiy-madaniy, jismoniy tarbiya va sport infratuzilmasidan iboratdir.

O'zbekistondagi kasbiy ta'lim tizimi butun jahon tamoyillari va Respublikada ishlab chiqarilgan yangi ta'lim standartlariga muvofiq o'rta maxsus, kasb-hunar, ikki bosqichli oliy ta'lim, izchil malaka oshirish tizimida kadrlarni uzluksiz tayyorlashga o'tgan.

Hozirgi paytda mamlakatda 9900ga yaqin maktab, 6000dan ortiq maktabgacha va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari, 1537ta kasb-hunar kollejlari va akademik litseylari faoliyat yuritmoqda, 59ta oliy ta'lim muassasasi, 11ta Respublika markaziy oliy o'quv yurtlarining viloyatlardagi filiallari, 6ta yetakchi xorijiy oliy o'quv yurtlari filiallari magistratura mutaxassisliklari va bakalavriatning muhim yo'nalishlari bo'yicha kasbiy-ta'limiy dasturlarni amalga oshirmoqda. Alohida ta'kidlash kerakki, mustaqillik yillari davomida oliy ta'lim muassasalari soni ikki barobarga oshdi.

Respublikada kasbiy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari talabga muvofiqlashtirib borilmoqda. Bozor iqtisodiyoti talab etayotgan yangi, kamyob yo'nalishlar - muhandislik, axborot texnologiyalari, agrar soha, qurilish va arxitektura, geologiya, neft va gaz sohasi bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yilmoqda.

Hozirgi bosqichdagi ta'lim islohotlari yangi vazifalarni qo'ymoqda, global voqelik, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, axborot texnologiyalari va "bilimlar iqtisodi"ning o'ziga xos xususiyatlari, ishlab chiqarish kuchlarini modernizatsiyalash, davlat va jamiyatning olg'a siljishi yuzaga keltirgan yangi ustivorliklarni ilgari surmoqda.

¹ Karimov I.A. "Bilimli va aql-zakovatli avlodni tayyorlash—mamlakatni barqaror rivojlantirish va modernizatsiyalashning muhim sharti" mavzusidagi 2012 yil 16—17 fevral kunlari xalqaro konferentsiyada so'zlagan nutqi

Shunga ko'ra, O'zbekistondagi zamonaviy ta'lim tizimining mazmun va mohiyati insoniyat tomonidan to'plangan g'oyalar, tushunchalar va tajribani o'zlashtirishga qaratilbigina qolmay, balki har bir shaxsning intellektual ijodiy qobiliyati, aqliy va amaliy kasb faoliyatidagi hamda olingan axborot bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Ular jahon standartlari darajasidagi ishlab chiqarish va texnologik jarayonlarda erkin ishtirok eta olishi, zamonaviy qurilmalar va malakali xodimlarning samarali ishlashini ta'minlashga qodir bo'lishi kerak. Bunda davlat ta'lim standartlariga muvofiq bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq bundan tashqari, o'quvchi mustaqil fikrga ega bo'lishi, olingan bilimlarni amaliyotda qo'llay olishi, zarur kasbiy va tashkilotchilik xususiyatlarini o'zida kasb etishi zarur. Zero, zamon ishlab chiqarish va texnologik jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda aniq ish joylari uchun yuqori kasbiy mahoratga ega kadrlarni tayyorlashni taqozo etadi.

Ushbu ishimizda «Boburnoma» ning ingliz tilidagi tarjimalarini tadqiqot manbai qilib oldik.

Inglizlar bu manbani uzoq yillar davomida kuzatdilar, lug'at tuzdilar va katta muxabbat bilan ugirdilar. Chunonchi, Jon Leyden 1804-1805 yillarda «Boburnoma» kulyozmalarini bevosita turkiy aslyatdan o'rganishga kirishdi. Jon Leyden boshlagan ishni uning vafotidan so'ng u bilan bir vaktida asarni forscha tarjimasidan o'girishga kirishgan Vil'yam Erskin poyoniga yetkazib, tarjimini 1826-yilda chop ettirdi. Bu tarjima 1921-yili Dublin universiteta arab, fors tillari va Xindiston tarixi buyicha professor janob Lyukas King tomonidan taxlil va talqin kilinib, «Memoirs of Zahir-ed-din Muhammed Babur» (Zaxiriddin Muxammad Bobur esdaliklari)² nomi bilan yana chop ettirildi.

Ikkinchi tarjima Anetta Susanna Beverij (Annette Susannah Beveridge) xonim kalamiga mansub. U uz umr yuldoshi, ulkan sharkshunos olim Xenri Beverij (Henry Beveridge) kumagida 1899-yildan manbalarni o'rganishga kirishib, 1905-yildan tarjimini chop ettira boshlagan va 1922-yilda yaxlit xolda bosmadan chikargan.

Uchinchi tarjima esa AKSh Xarvard universitetining profes-sori Viler Tekston (Wheeler M. Thackston) nomi bilan boglik bo'lib, u 1996-yilda AKSh da, Oksford universiteta nashrietida chop etilgan.

Ko'rinadiki, sal kam ikki asr davomida inglizzabon ilm-fan arboblari «Boburnoma»ni, «Boburnoma» esa Buyuk Britaniya bilan AKSh va dunyodagi ingliz tili da suzlashuvchi boshka kuplab mamlakatlarni kashf etmokda. Shunga karamasdan, «Boburnoma» tarjimachiligida xanuz kemtiklar, nuksonlarning takrorlanishi uchrab turibdi. Tarjimaning mukammal bulishi «Boburnoma» faqat ilmiy, lugaviy-istixoliy, badiiy tomondangina emas, balki endilikda asarning uz tabiatidan kelib chikkan xolda tarixiy, etnografik, tilshunoslik, adabiyotshunoslik fanlari nuqtai nazaridan tortib, ushbu memuar tarjimasida muallifning ruxiy kechinmalari kay darajada berilganiga qadar chuqur tadqiq qilishni taqozo etadi.

Tadqiqot usuli qiyosiy, tarixiy, tipologik, chogishtirma tilshunoslik taxlil tabitidan kelib chikadi. Asosiy tekshirish dasturlarimiz ob'ektiv ilmiy - tarixiy yunalishdir,

Aslyat, ma'lumki, o'z zamonasining adabiy tilida yoziladi. Tarjima esa bugungi kunning lisoniy xolatini aks ettiradi. Xuddi shu sifati bilan xam u mumtoz va be'takror. Xar kanday puxta tarjima chuqur xurmatga loyiq, lekin u xech qachon original bilan bellasha olmaydi.

Biz ushbu noyob adabiy yodgorlik va uning tarjimalarini tarixiy davr talabidan kelib chiqib, qiyosiy maqomda taxlil etish, tarjimonlarning ijtimoiy - siyosiy qarashlariyu maqsadlarini, ular yashagan davr xususiyati bilan bog'langan xolda ochib berishni niyat qildik.

Binobarin, ushbu **tadqiqot qo'yilgan maqsad** - «Boburnoma» ning inglizcha tarjimalarida Bobur nasri tiliga xos bulgan lisoniy birliklarning tarjimada kanday berilgani xamda muallif kechinmalarining kay tarzda aks ettirilganligi, bundagi tajribiy takomilni va muallif uslubining aks etishini kuza-tishdan iborat.

² Humphrey Milford Oxford University press. 1921 Baburname, Memories of Babur. Junpura, New Delpi. Baburname, Prince and Empieror. New York. Oxford.

Bunga erishish uchun esa qo'yidagi vazifalar bajarilishi lozim deb xisoblaymiz:

-ingliz va amerikalik tarjimonlarning «Boburnoma»ni ugrish buyicha amalga oshirgan ishlarning ilmiy qimmatini aniqlash ;

-Leyden - Erskindan - Viler Tekstongacha tarjima tadrijiyoti (evoltsiyasi) natijalarni ko'rsatib berish va taxlil qilish

- Xar bir tarjimaning yuzaga kelish tarixi va xususiyatini aniqlash ;

-«Boburnoma» da aks etgan madaniy - maishiy uziga xosliklar, rasm-rusmlar, udumlar, atamalar, kechinmalarni taxlil qilish asnosida ularning ingliz tilidagi talqinlarni kuzatish;

- asliyadagi badiiy tasvir vositalarini inglizcha tarjimalarda qayta yaratish jarayoniniilmiy taxlildan o'tkazish;

-inglizcha tarjimalardagi uslubiy uziga xosliklar, ularning bir biridan farq qiluvchi tomonlarini aniqlash;

- «Boburnoma» da Bobur shaxsining aks etishi va tarjima masalasi;

-yanada makbul, adekvat tarjimalarni yuzaga keltirish borasi-da takliflar berish.

Mavzuning o'rganilganligi darajasiga kelsak, «Boburnoma» ilk bor 1589-yilda Abduraximxon ibn Bayramxon tomonidan forsiyga o'girilgan, u keyinchalik ayni tilga yana uch marta ugrildi. Ingliz tiliga uch marta, olmon, frantsuz va turk tillarida ikki martadan va golland, xind, yapon, uygur va polyak tillarida bir martadan chop etilgan. Turli ijtimoiy-tarixiy sabablarga ko'ra «Boburnoma» dastlab ingliz mutarjimlari tomonidan ilmiy o'rganila boshlangan. Biroq to XX asrga qadar bu mo'tabar asar o'zbek va umuman turkiy xalqlar adabiyotshunosligida aloxida o'rganilgani ma'lum emas.

Boburshunoslarning yozishlaricha, endilikda Bobur mirzo xakida tur li tillarda risola va monografiyalar, besh yuzga yaqin ilmiy makolalar, adabiy asarlar yozilgan, lug'atlar tartib berilgan, xarbiy yurishlar xakida maxsus xaritalar tuzilgan. Boburning merosini yig'ish, asarlarning matnlarini aniqlash buyicha qilingan ishlar xam taxsinga sazovor, «Boburnoma » ni Vitsen D. Derbelo, Jon Leyden, Vil yam Erskin. Jan Lui Bakye-Grammon, R. M. Koldekot, S. Leyn Puul, E. Xolden. M. Elfinston, G.M. Elliot, V.X. Moreland, A. Pave de Kurteyl, F.G. Tolbot, A. Denison Ross, A.S. Beverij, X. Beverij, X. Lemb, A. Shimmel, M.V. Kupirilizoda kabi yirik garbiy ovrupolik sharkshunoslar xamda N.I. Il minskiy, N.N. Pantusov, V. V. Vyatkin, N. I. Veselovskiy, V. V. Bartold, A. N. Samoylovich, M. Sal ye, AA. Semyonov, A. Yu. Yakubovskiy, I. V. Stebleva kabi rus olimlari, afgon olimlaridan: Axmad ali Kuxzod, Abdulxay Xabibiy, Gulchin Maoniy, xind olimlaridan: Zokir Xusayn Nurul Xasan, Muni La'l, S. A. Sharim, R. P. Tripatxi, P. Saran, Konunga, Muxibbul Xasan tadqiq etganlar,

Boburshunoslikda o'zbek mutaxassislarining xam xissasi kam emas. A. Fitrat, X. Yokubov, Ya. Gulomov, V. Zoxidov, S. Azimjonova, I. Sultonov, A. Kayumov, A. Xayitmetov, F. Sulaymonova, X. Xasanov, N. Mallaev, S. Xasanov, X. Nazarova, P. Kodirov, S. Jamalov, B. Valixo'jaev, R. Nabiev, A. Abdo'g'ofurov. B. Qosimov, G'. Salomov, N. Komilov, J. Sharipov, N. Vladimirova, X. Kudratillaev, M. Xolbekov, A. Abduazizov, B. Mamatov, S. Raximov, G. Xo'jaev, L. Xujaev, F. Salimova, S. Shukrullaeva va boshkalar Bobur asarlarini tarixiy adabiy, geografik, tarjimavii va lugaviy manba sifatida tadqiq etganlar, Xususan «Boburnoma» ning xorijiy tillarga tarjimalari yuzasidan bir qancha diqqatga loyiq tadqiqotlar amalga oshirildi.

«Boburnoma» ning xorijiy tillarga tarjimalarini maxsus ilmiy tadqiqot tarzida o'rganish O'bekistonda yetmishinchi yillarda boshlandi. N. Otajonovning «Badiiy tarjima va ilmiy sharx» mavzuidagi nomzodlik (1978) xamda «Boburnoma» jaxon adabiy jarayonida deb nomlangan doktorlik (1994), L. Xujaevaning («Tarjima muammolari: «Boburnoma» matnining xarakteri, uslubi va uning talqini» (1985), G. Xo'jaevning «O'zbek adabiyoti namunalari badiiy-uslubiy uziga xosliklarini nemischa tarjimalarda qayta yaratish» (1985), S. Shukrullaevning «Boburnoma» badiiy uziga xosligini inglizcha tarjimalarda qayta tik-lash, F. Salimovanning «Pave de Kurteylning Sharkiy turk lug'ati va «Boburnoma» tarjimalarining leksikografik xamda matniy tavsiflari» mavzularidagi nomzodlik (1997) dissertatsiyalari ana shular jumlasidan.

Ma'lumki, «Boburnoma» - universal komusiy memuar, o'zbek mumtoz nasrining eng barkamol namunasi, butun Islom dunyosidagi dastlabki avtobiografik asar. Uni o'rganish va

tarjima qilish xam tadqiqotchilar va mutarjimlarning asarga kaysi jixatdan yondo-shishlariga boglik. O'zbek tadqiqotchilarining korida tilga olingan dissertatsion ishlarida xam tarjimalar u yoki bu filologik maqsad va muammo nuqtai nazaridan o'rganilgan albatta. Professor N. Otajonov va S. Shukrullaevlarning tadqiqotlarida «Boburnoma»ga asosan badiiy nasr namunasi sifatida yondoshilib, urtaga qo'yilgan ilmiy muammolar shu jixatlardan yoritilgan bulsa, L.Xujaeva dissertatsiyasida ayni masalalar asarning M. Sal yening ruscha tarjimasi misolida, G. Xo'jaev tadqiqotida esa, olmon tilidagi o'girmalar asosida tadqiq etishga xarakat kilingan, F. Salimova tarjimada lug'at masalasini o'rtaga kuyib, asarning frantsuzcha tarjimasini tadqiq etgan.

Takdim etilayotgan ishimizda biz «Boburnoma» ning ingliz tilida yakinda (1996) Xarvard universitetining profesori Viler Tekston tomonidan amalga oshirilgan yangi tarjimasini avvalgi ikki (Leyden- Erskin va Beverij) tarjimalariga qiyosan taxlil etish, shu asnoda ularni matn nuqtai nazaridan, ya'ni matnda kuzda tutilgan ma'no, uni tugri tushunish va talqin etish jixatidan yondoshishga xarakat qildik.

Ishning metodi va metodologiyasi badiiy, uslubiy, qiyosiy, chogishtirma-tarixiy metod negizida bo'lib, unda ko'rib chiqilgan barcha masalalarga mustaqillik mafkurasi nuqtai nazaridan yondoshilgan va bunda birinchi galda yurtboshimiz I. A. Karimov asarlaridagi tarixiy utmishimizga xurmat, buyuk ajdodlarimiz merosini chuqur tadqiq etish, yoshlarimizga ularni singdirish kabi fikrlar dasturulamal kilib olinadi. Ishda o'zbek va boshka xorijiy tilshunos xamda adabiyotshunos olimlarning asarlariga tayanildi.

- «Boburnoma» ning qariyb ikki yuz yil oraligida chop etilgan uchta inglizcha tarjimasi qiyosan o'rganildi, ingliz va amerikalik tadqiqotchi xamda mutarjimlarning mazkur manbaga bagishlangan ilmiy tadqiqot ishlarining axamiyati xam yoritib berildi;

- asar tilida mavjud, ammo xanuzgacha mavxum bo'lib kelgan (tushunarsiz) ko'plab kalima va iboralar oydinlashtiridi;

- o'zbek xalqining madaniyati, qadriyatlari, udumiga xos bir qancha rasm-rusumlar talqin kilib berildi va ana shunday urirlarning makbul tarjimalari tadqiqotda aks ettirildi.

- mavjud tarjimalardagi uzilishlar ko'rsatib berildi;

- xar bir tarjimaga xos fazilat va nuksonlar aniqlandi;

- «Boburnoma» tarjimasiga yondoshishning maqbul printsiplariga imkoniyat qadar yondoshildi

Tadqiqotning nazariy axamiyati ingliz tarjimonlari qalamiga mansub «Boburnoma» matnlarini qiyosiy - tanqidiy o'rganish asnosida yuzaga kelgan ilmiy - nazariy g'oyalar bo'lajak tarjima matnini yaratishda yordamchi manba bo'lib xizmat qiladi degan umiddamiz. Tadqiqotda faqat ingliz tilidagi tarjimalar qiyosiy taxlil kilinib kolmay, balki asarning xozirga qadar turkiyzabon o'kuvchisi uchun mubxam bo'lib kelayotgan ba'zi qirralari ochib berilganligi bo'lajak «Boburnoma» tobdili uchun bevosita bo'lishi mumkin

Ishning amaliy axamiyati uning tarjimachilik masalalari kulamini o'rganish va rivojlantirishga muayyan xissa kushishi bilan belgilanadi. «Boburnoma» ning turkiy asliyatini inglizcha tarjimalar bilan qiyoslash orkali ochib borilgan taxlil natijalari kadimgi yozma obidalarni zamonaviy tillaga, jumladan turkiy tillardan ingliz va dunyodagi boshka tillarga bevosita asliyatdan tarjima qilishda foydali kullanma bo'ladi, deb o'ylaymiz. Ma'naviy qadriyatlarimizni to'g'ri tushunishga xizmat kiladi.

«Kirish» qismida mavzuning tanlanishi bilan boglik xollar asoslanadi, tadqiqotning maqsad va vazifalari belgilanadi, nazariy va amaliy axamiyati asoslab beriladi, ish usullari, taxlil qilinayotgan material manbalari tavsiflanadi, ximoyaga xavola etiladigan asosiy masalalar ifodalanadi.

O'zbekiston istiklolni qulga kiritganidan sung odamlar tafakkurida asta-sekin tub uzgarishlar jilva ko'rsatib, ma'naviyatimiz, ma'rifatimiz, qarashlarimiz, qadriyatlarimizni idrok etishda yangilanish paydo bo'ldi. Bu yangilanish, poklanish, evrilishlar baxs, munozara, tanqid va taxlillar zamirida kezmoqda.

Xar bir kalbi tiyrak, shuuri uygok odamda kelajakka qanday munosabatda bulish, vatan xamda millat taqdiri, kelajak avlod oldida masuliyat xissi uygondi. Saltanat va davlatchilik tarixini bunyod etish ziyolilarimiz, olimlarimiz zimmasida turibdi.

Tarixda shunday shaxslar bo'ladiki, ular ular millat taqdiri va taraqqiyotida mislsiz katta mavqe kozonadi. Zamonlar o'tadi, nasllar, avlodlar almashadi, qarashlar, urf-odatlar o'zgaradi, Taraqqiyot yoki tanazzul shu qadar evriladiki, tafakkur va tilda bir qadar mushtaraklik saqlansada, badiiy lisoniy-uslubiy ifoda vositalarida jiddiy siljishlar paydo bo'ladi. Gap xatto shunga borib yetadiki, bobokalon ulug'larimiz bilan goxo bir-birimizni tula anglab yetmaydigan bo'lib qolamiz.

O'zligini anglay boshlagan xalqimizda «Nima uchun Navoiyni tushunmaymiz?» degan og'rikli antika savol bexudaga kundalang bo'lmayotibdi. Amerikalik tarjimon Viler Tekston yaratgan «Boburnoma» ning yangi inglizcha nusxasi matniga baxo bur ganda xam ana shu jixatlarni qat'iy ravishda xisobga olish lozim. Ushbu kitobning favkulotda qimmatini shundaki, u mazkur noyob xotira nomani dunyodagi barcha ingliz zabon xalqlarning etiboriga musharraf etdi, ularni Movaraunnaxr, Xindiston, Avganiston, Xurosonda kechmish urta asr tarixining xaqqoniy, jonli manzaralari bilan baxramand qildi.

I BOB. TARJIMA JAROYONIDA VUJUDGA KELADIGAN MUAMMOLAR TAXLILI

I.1 -Tarjimada milliylikni aks ettirish zarurati, shartlari va uchrab turadigan qiyinchiliklar

Tillarda tarjima qilib bo'lmaydigan faktlar (realemalar, idiomatik qurilmalar) haqida gapirganda avvalo tillarni milliyligini o'zida mujassam qilib turadigan shunday betakror hodisalar vositalar borki, ularni bir tildan ikkinchi tilga o'girish juda katta muammolarni keltirib chiqaradi. Unday paytlarda tillarda tasviriylik (obrazlilik, obraznost') va ifodalilik (virazitel'nost') bir xil emasligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, rus tilidagi okroshka, o'zbek tilidagi chuchvara, monti, sandal so'ri, maxsi, ton, do'ppi, oyisi, dadasi kabi so'zlar, ingliz tilida dozen, mile, football, machine, meter, pound, sterling, pudding, dressing kabi so'zlarni bir tildan ikkinchi tilga o'girishda katta ma'no yiqotishlari kuzatiladi. Ularni 100% miqdorda tarjimada berishning ilojisi va imkoniyati yo'q, Chunki ular bir halqning xayot tarzi bilan birga bog'lanib, asrlar davomida shakllanib, tilga, iste'molga kirib kelgan sizlar bilib ularni igitirishda nimadir yiqotilishi tabiiy, Chunki ularning o'zga tillarda 100% mos keladigan muqobili yo'q. Lekin bu degani yana "tarjimani amalga oshirib bo'lmaydigan bir faoliyat" degan xulosaga bormaslik kerak. Chunki ularni ixcham o'zlariga o'xshash bir so'z bilan berishning iloji bo'lmasa, ularni izoxlar orqali, tushuntirishlar orqali berish mumkin. Shunday qilib ma'lum ma'nolar yig'indisi yoki ma'lum mazmun bir tildan ikkinchi tilga u yoki bu darajada kuchli tarjima amalga oshirildi deb xisoblash mumkin. Lekin shunday til hodisalari ham borki, bir tildan ikkinchisiga o'girib bo'lmaydi, masalan, o'zbekcha "dadamlar keldilar" gapida "lar" qo'shimchasi odatdagi ko'plik ma'nosini emas, "xurmat" ma'nosini anglatib kelyapti. Bu ma'noni rus tiliga, ingliz tiliga tarjima qilib o'tkazishning iloji yo'q, chunki bunday tushuncha u tillarda umuman yo'q agar bo'lsa ham bunday qo'shimcha orqali berilmaydi. Qiyoslang: His Higness the King, his greatness Bobur, his Majesy the King, his Honour the King, his Greatness Alisher Navoi, Your Honour ingliz tilida

Xazrati Navoiy, Navoiy xazratlari, Ulug' Shaxanshox, Shaxanshoximiz, Xon xazratlari va boshqalar rus tilida Yego velichestvo, visochestvo va boshqalar.

Shunisi qiziqki, shunday iboralar ham borki, ulrani umuman o'girish xaqida gap bo'lishi ham mumkin emasdek ko'rinadi. Masalan,

Onang qoqindiq, keldingmi?

Onang o'rgilsin, qayerlarda yuribsan?

Buving aylansin bormisan o'zi?

Onang girgittan, ketyapsanmi?

Manga urning tarjimada, my sweet, sweetheart, sugar, honey, dearest kabilarni qo'llasa bo'ladi, lekin o'zbekcha gapdan anglashilgan yaxlit ma'no to'laligicha o'tmayotganligi bu yerda yaqqol ko'zga ko'rinib turibdi.

Yuqoridagi holatlardan ko'rinib turibdiki, tillarda "lakuna"lar bor ekanki, ular boshqa tildagi tushunchalarni qo'llay olmaydilar shunday holatda "realiyalar"ni bir tildan ikkinchi til qarzga olishga bo'ladi va shunday qilinadi ham.

S.Vlaxov va S.Florinlar fikriga kura, "tarjima qilinishi dargumon bo'lgan hodisagacha yetib borish bilangina ma'lum bir tilning betakror ekanligiga amin bo'lish mumkin" ("Neperevodimoe v perevode" M. 1980)

Tarjimashunoslikda asl nusxa tili va tarjima tilidagi materialning qay shaklda amalga oshirilayotganiga qarab tarjimaning turli turlarini ajratish mumkin. Bu birinchi tasniflashtirishga asos bo'luvchi omildir. Tarjimashunoslikda tarjimaning turlarini ularning mazmuni va mohiyatidan kelib chiqib ajratish ham amalga oshirib kelinmoqda, unda tarjimaga aloqador xar ikkala tildagi matnlarning shakli emas, balki ularning mazmuni yoki mohiyatiga tayanib tasniflashtiriladi. Biz quyida tarjimashunoslik olimlarning tarjima turlariga o'ziga xoslik bilan yondoshib ularni tasnifini berishga urinishlarini ko'rib chiqamiz. Tarjimashunoslikda rus tarjimashunos olimi L.S.Barxudarovning tarjima turlari xaqidagi fikri juda aniq va ravshan deyarli o'ziga savollarni talab qilmaydigan yondoshishdir. L.S.Barxudarov asl nusxa tili va tarjima tili matnining qanday shaklda berilishiga ko'ra tarjimaning to'rt asosiy turini ajratadi:

1. og`zaki-og`zaki
2. yozma-yozma
3. og`zaki-yozma
4. yozma-og`zaki

U o'zining ("Yazik i perevod" M. 1975) asarida yuqoridagi turlarining har biriga alohidan sharh berib, ularning ahamiyati va salmog'ini atroflicha tahlil qilib bergan (qarang: "Yazik i perevod M. 1975 46-49 betlar").

Ushbu tarjima turlari orasida og`zaki-og`zaki tarjima 2 turga bo'linadi:

1. og`zaki-izchil tarjima (consequent-consistant translation)
2. og`zaki sinxron tarjima (simultaneous-synchronous translation)

Tarjimada faqat til ichki ma'nosini saqlab qolish imkoniyati yo'q, qolgan ma'nolar tarjimada saqlanishi shart. Aks holda tarjimada to'laqonlik ta'minlanmaydi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, tarjimada ma'nolar rang-barangligi mavjud, ya'ni unda tilga xos barcha ma'nolar va mazmunlar kuzatiladi. Hamma gap ham mana shu ma'no turlarini farqlab, bir tildan ikkinchi tilga o'girishdadir. Tarjimon ma'nolar bilan ish ko'rar ekan, ularning qaysi biri manba tilidan tarjima tiliga o'tadi (o'tish darajasi, albatta, tarjimon saviyasiga bog'liq), qaysi birlari esa o'zga tilga o'tmaydi, chunki bunday hodisalarning mavjudligiga asosiy sabab tillardagi betakror xususiyatlarning ham oz bo'lsada borligidir. Demak, asl nusxa tilidan tarjima tiliga biron bir ma'noning o'girilish imkoniyati bo'lmasa, asl nusxa tiliga idiomatik (betakror) til birligi yoki hodisasi bor ekanligidan dalolat beradi, unda tarjimon faqat uch yo'l tutishi mumkin:

- 1) tushuntirish yoki izohli tarjimaga murojat etadi
- 2) tarjimaviy transkripsiyaga murojat qiladi
- 3) tarjimaviy transliteratsiyaga murojat qiladi

Yuqorida sanab o'tilgan ma'nolar ichida til ichki ma'nosini manba tilidan tarjima tiliga o'tkazish amri mahol, chunki bu ma'no manba til uchun muhim ahamiyat kasb etsada, tarjima

tiliga ko'chib o'tmaydi. Bunga sabab, tarjima tilida ularning saqlanishiga xojat yo'q. Masalan, This is a book -Bu kitob, bu holatda "a" O'zbek tiliga o'tmayapti, uning o'tmaganligini isbotlash qiyin. Shunday qilib, tarjimon o'z faoliyatida ma'nolar bilan ish kuni qidirib topishi shart, aks holda tarjima xom, sifatsiz chiqishi turgan gap. Hamma gap ham asl nusxa tilidagi barcha ma'nolarni tarjima tiliga o'girishga muvaffaq bo'lishda qoladi.

Avvalo "tarjima" so'zi nimalarni anglatar ekan, shuni aniqlab olaylik. Tarjima tushuncha sifatida quyidagilarni ifodalaydi:

1. Ilmiy - amaliy jarayon
2. Ilmiy - amaliy jarayon natijasi.

masalan: Shekspir asarlari tarjimasi, Dikkins romanining tarjimasi.

3. Tarjima - fan, o'quv predmeti

G'. Salomovning fikriga ko'ra "Tarjima" atamasi forscha "tarzabon" so'zidan arablashib o'zgargan (tarzabon-fors tilida chiroyli so'zlovchi, notiq, tili burro kishi) degan ma'noni anglatadi. Arabcha ushbu so'z "tarjumon shaklida bo'lib undan", "tarjima" yoki "tarjuma" xosil bilgan (Salomov 1978, 98 bet).

O'zbek tilida u "chevurish", "o'tkazish", "qaytarish", "ag'darish", "o'girish", atamaları orqali ifoda etiladi. Demak, tarjima qilmoq o'zbek tilida quyidagi sinonimlariga ega:

1. O'girmoq
2. Ag'darmoq
3. Chovurmoq
4. Qaytarmoq
5. O'tkazmoq

Yuqoridagi so'zlardan bugungi kunda o'girmoq, ag'darmoq, chovurmoq va O'zbekchalashtirmoq, ruschalashtirmoq kabi so'zlar ko'p qo'llaniladi. Tarjima - biz o'rganayotgan kursimizda nutqning bir turi sifatida tilshunoslik nuqtai nazaridan qarab o'rganiladi, ya'ni tarjima protsessi bu bir tildagi tekstni ikkinchi bir tilga ag'darish-transformatsiya qilish demakdir. Demak, mana shu har xil bajariladigan o'zaro ikki til irtasidagi ishlar, operatsiyalarni tilshunoslik nuqtai nazaridan tarjima protsessi deb aytish mumkin.³

Shunday qilib, "tarjima"ni o'ziga xos transformatsiyalarning bir turi deb qarash mumkin. Boshqacha qilib aytganda tarjimani tillararo transformatsiyalarga, ya'ni tarjima protsessiga bilgan ilmiy qarashlarning o'rganilishi yoritilishi sanalsa, uning ish kirish ob'ekti bo'lib esa mavjud tarjimalar xizmat qiladi.

Biz yuqorida tarjima bir tildagi tekstni ikkinchi bir tilga transformatsiya qilish (ag'darish), tarjima qilish protsessi deb aytib o'tdik. Tarjima qilinayotganda hamma vaqt ikki tekst bilan ish ko'riladi, shundan biri ikkinchisiga bog'liq bo'lmagan holda yaratilgan bo'lib, manba tekst vazifasini bajaradi, ikkinchisi esa bir qancha operatsiyalar: tillararo transformatsiyalar orqali birinchi tekst asosida yaratilgan. Birinchi tekst original tekst deb atalsa, ikkinchisi tarjima teksti deb yuritiladi. Original tekst yozilgan til, manba til (source language) deb ataladi. Original tekstni ag'darilayotgan til esa tarjima tili deb yuritiladi (target language). Tarjima fan sifatida izining tahlil metodlarga ega. Bugungi kunda uning tahlil metodlari quyidagicha. L.S.Barxudarov fikriga ko'ra tarjimashunoslik o'zining quyidagi tahlil metodlariga ega:

1. Qiyosiy metod (Chunki istalgan holatda ikki tilni qiyoslash asosida tarjima amalga oshiriladi).
2. Komponentlarga ajratish metodi (componential method semes -semalarga ajratib tahlil qilish metodi).
3. Transformatsion metod (tilda ilk til vositalari, azaliy tiplarni aniqlab, ulardan kelib chiqqan til vositalarini irganib, tahlil qiluvchi metod leksik, grammatik transformatsiyalar).
4. Statistik metod.

³ Salomov G.T. Tarjima nazariyasi va asoslari. - T., 1983 87-b

5. Oppozitsiya metodi (qarama-qarshi qiyib taxlil qilish metodi (boy-boys came; did not come)).

Ushbu metodlardan tashqari tarjimani amalga oshirish usullari ham mavjud, bular esa tarjimashunoslikning o'ziga xos ish ko'rish usullaridir (metodlaridir).

1. Ma'lumotlarni qisqa va lo'nda qilib yozib olish (kerakli joylarini qisqa qayd etish) va ularga tayanib o'g'irish usuli. (masalan og'zaki tarjimada).

2. Tarjimada asl nusxa materialini ma'nodor bo'laklarga ajratib o'g'irish usuli. (Barcha tarjima turlarida).

3. Matnni leksik, grammatik transformatsiyalar orqali o'g'irish usuli.

A) og'zaki transformatsiyalar orqali o'g'irish usuli

B) yozma transformatsiyalar orqali o'g'irish usuli

V) og'zaki-yozma transformatsiyalar orqali o'g'irish usuli

G) yozma-og'zaki transformatsiyalar orqali o'g'irish usuli

4. Antonimik vositalar orqali o'g'irish usuli.

5. Sinonimik vositalar orqali o'g'irish usuli.

6. Tarjimaviy transkripsiya orqali o'g'irish usuli.

7. Tarjimaviy transliteratsiya orqali o'g'irish usuli

8. Kal'ka orqali o'g'irish usuli

9. Kompensatsiya orqali o'g'irish usuli

10. Umumlashtirish (generalization) orqali o'g'irish usuli

(I come here every weekend -xafta singida kelaman).

11. Konkretlashtirish orqali o'g'irish usuli

(he said where are you from -U siradi (aytdi emas) Qaerdansiz?)

12. Nutqni ixchamlashtirish (kompensatsiya) orqali

After he had gone there we had some peace - U ketganda sing biz tin oldik.

After his departure we had peace.

Endi ikkinchi bir muxim masala, ya'ni nimaga asoslangan holda tarjima tekstni original tekstiga ekvivalent deb xisoblash mumkin degan masalaga to'xtalib o'tamiz. Masalan, nima asosida biz "Mening akam Londonda o'qiydi" gapini inglizcha "My brother studies in London" gapining tarjimasi deb aytaymiz? Yuqoridagi o'zbekcha gapning tarjimasi deb qarash uchun "My brother studies in London" shu gapdagi ma'lum bir invariant ma'no tarjima gapida saqlangan bo'lishi kerak. Shu ma'noning saqlanish mezonini (ilchovi) original tekstning tarjima tekstga ekvivalentlik (moslik) mezonini aniqlab beradi. Bundan kelib chiqadiki, avvalo tarjima protsessida manba tekstidan tarjima tekstiga nima invariant bo'lib o'tish kerak degan masalani hal qilib olishga to'g'ri keladi. Ma'lumki, tarjima protsessi belgilar sistemasi haqidagi fan semiotikada tan olingan fakt ya'ni, belgining 2 tomonlama xususiyatga ega ekanligiga bevosita bog'liqdir. Har qanday til belgisi ikki tomon yoki ko'lam: 1. Ifoda ko'lam 2. Mazmun ko'lamiga, yoki boshqacha aytganda formaga va ma'noga ega.

Ma'lumki, til o'ziga xos belgilar sistemasidir shunga ko'ra til birliklari ham ikki tomonlikka ega, ya'ni ham formaga ham ma'noga ega.

Shunday ekan, tarjima uchun quyidagi qonuniyat hal qiluvchi rolni quyidagi fakt o'ynaydi, ya'ni har xil tillar ifoda plani bilan farqlansada, mazmun plani bilan mos tushadigan birliklarga ega. Masalan, inglizcha "brother" so'zi o'zbek tilida "aka" so'zidan ifoda ko'lam bilan farqlansada, mazmun ko'lam (ma'nosi) bilan farq qilmaydi, unga mos tushadi, ya'ni ular har xil grafikaga (yozuvga va talaffuzga) ega. Shunday qilib, inglizcha "brother" so'zini o'zbek tiliga "aka" so'zi bilan ag'darsak, tarjima protsessi oddiy bir kirinishida amalga oshadi, bunda har ikkala til ma'no (mazmun) kilamida bir biriga mos tushgan, ekvivalent ekanligini ko'ramiz. Ma'lumki, gap kichik bir tekst (nutk bilagi) bilib xisoblanadi, shuning uchun ham tarjima asosan gap miqyosida amalga oshiriladi, bunday holda yuqorida aytib itilganidek har xil til birliklari irtasidagi ma'no kilamidagi mos kelmasliklar yo'qoladi (omonimlar, ko'p ma'noliliklar barham topadi). Demak, mana Shunday kichik bir mikrokontekst bo'lishi shart, aks holda tarjima puxta chiqmaydi. Yana yuqoridagi misolimizga qaytsak, tarjima protsessida biz inglizcha "brother"

so'zi O'zbek tilidagi "aka" so'zi, "studies" "o'qiydi" so'zi bilan shunchaki bir almashtiribgina qolmadik, balki uni butun bir O'zbekcha gap (Mening akam Londonda iqiydi) bilan almashtirdik. Bunda har ikki tildagi gaplar mazmun jixatidan bir-biriga mos (ekvivalent) bilib, ifoda (forma jixatidan) bir-biridan farq qiladilar. Yuqoridagi fikrga binoan tarjima tarifini quyidagicha berish mumkin: "Tarjima deb bir tildagi nutq bilagini, mazmun ko'lamini saqlagan (o'zgartirmagan)" holda ikkinchi bir tildagi nutq bo'lagiga aylantirishiga aytiladi.

Tarjima nazariyasi boshqa yana ko'pgina fanlar bilan aloqador. Tarjimashunoslikning yuqoridagi fanlar bilan aloqaga kirishi bevosita yoki bilvosita bo'lishi mumkin. Masalan, tarjimashunoslik filologik fanlar bilan (adabiyotshunoslik, tilshunoslik, sotsialingivistika, psiholingvistika va boshqalar) bevosita bog'liqdir, chunki yuqoridagi barcha fikrlar til bilan ish ko'radi. Qolgan fanlar esa (mediitsna, fizika, psihologiya, tarix, astronomiya, informatika, kibernetika va xokazolar) tarjimashunoslika bilvosita aloqadordir, chunki tarjima qilinayotgan matn u yoki bu jihatdan yuqoridagi fanlarga aloqador bo'lib qoladi.⁴ Masalan: Tarixiy romanlar tarjimasida tarixiy faktlar rolini inkor etib bo'lmaydi, agar tarjima to'laqonli chiqsin desak, asl nusxa matnidagi voqelik bilan uning fikrlari oydinlashadi va tarixiy voqelik tarjima uchun puxta zamin bo'lib xizmat qiladi va xokazolar.

Yuqoridagi fanlar ichida qiyosiy tilshunoslik tarjimashunoslik uchun metodologik asos bilib xizmat qiladi, chunki tarjimashunoslik o'z tadqiqotlarida, taxlillarida bevosita qiyosiy tilshunoslik yutuqlariga tayanadi, undagi boy lingvistik an'analar, ma'lumotlar va tegishli echimlardan foydalanadi. Tarjima bugungi kunda mustaqil respublikamizda har qachongidan ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Bunga sabab O'zbekistonning tashqi dunyo bilan bilgan keng diplomatik, iqtisodiy, madaniy va ilmiy munosabatalarining rivojlanib borayotganligidir.

Bizning tarixan yaratilgan minglab durdona asarlarimiz tog'ridan to'g'ri O'zbek tilidan boshqa tillarga (vositasiz tillar orqali emas) tarjima qilinishi birinchi darajali masala va vazifa bo'lib turibdi. Biz tarjimashunoslikni puxta o'rganib, rivojlantirib uni mustaqil halq xizmatiga jalb qilishimiz kerak. Tarjimada faqat til ichki ma'nosini saqlab qolish imkoniyati yo'q, qolgan ma'nolar tarjimada saqlanishi shart. Aks holda tarjimada to'laqonlik ta'minlanmaydi.

Xulosa qilib, shuni aytish kerakki, tarjimada ma'nolar rang-barangligi mavjud, ya'ni unda tilga xos barcha ma'nolar va mazmunlar kuzatiladi. Hamma gap ham mana shu ma'no turlarini farqlab, bir tildan ikkinchi tilga ugrishdada. Tarjimon ma'nolar bilan ish kurar ekan, ularning kaysi biri manba tilidan tarjima tiliga o'tadi (utish darajasi, albatta, tarjimon saviyasiga bog'lik), qaysi birlari esa o'zga tilga utmaydi, chunki bunday hodisalarning mavjudligiga asosiy sabab tillardagi betakror xususiyatlarning ham oz bo'lsada borligidir. Demak asl nusxa tilidan tarjima tiliga biron bir ma'noning o'girilish imkoniyati bo'lmasa, asl nusxa tiliga idiomatik (betakror) til birligi yoki hodisasi bor ekanligidan dalolat beradi, unda tarjimon faqat uch yul tutishi mumkin:

- 4) tushuntirish eki izoxli tarjimaga murojat etadi
- 5) tarjimaviy transkripsiyaga murojat qiladi
- 6) tarjimaviy transliteratsiyaga murojat qiladi

Yuqorida sanab o'tilgan ma'nolar ichida til ichki ma'nosini manba tildan tarjima tiliga o'tkazish amri mahol, chunki bu ma'no manba til uchun muxim ahamiyat kasb etsada, tarjima tiliga ko'chib o'tmaydi. Bunga sabab, tarjima tilida ularning saqlanishiga xojat yo'q. Masalan, This is a book -Bu kitob, bu holatda "a" o'zbek tiliga utmayapti, uning utmaganligini isbotlash kiyin.

Shunday qilib, tarjimon o'z faoliyatida ma'nolar bilan ish kuni qidirib topishi shart, aks holda tarjima xom, sifatsiz chikishi turgan gap. Hamma gap ham asl nusxa tilidagi barcha ma'nolarni tarjima tiliga o'girishga muvaffaq bo'lishda qoladi.

Tarjima jarayonida uchrab turadigan qiyinchiliklar

Tarjima jarayonida turli-tuman mashqlar o'zgartishlar bilan ish ko'rar ekanmiz, tabiiyki biz ish faolyatimizda ma'lum qiyinchiliklarga duch kelamiz. Ularni quyidagicha turlarga bo'lish maqsadga muvofiqdir:

⁴ Salomov G.T. Tarjima nazariyasi va asoslari. - T., 1983 89-b

1. Leksik qiyinchiliklar
2. Grammatik qiyinchiliklar
3. Frazologik qiyinchiliklar

Agar e'tibor bilan qarasak, amalda tarjimon fonologik qiyinchiliklarga ham tez-tez duch kelib turadi. Bunday hollarda tarjimon ma'lum fonologik hodisalarni, ko'proq onomotopeya deb yuritiluvchi hodisani bir tildan ikkinchi bir tilga berishda ma'lum qiyinchiliklarga uchraydi, chunki bunday hollarda tarjimondan asl nusxa tilidagi taqlidiy so'zlarini o'sha tilda aytilgandek berish talab qilinadi. Masalan: aksa urish, tomoq qirish, xayratlanganda yoki xayajonlanganda til bilan tovushar chiqarish kabilarni bir tildan ikkinchi tilga o'girish katta muammo bo'lib tushadi. Bunda tarjimon o'girilayotgan tildagi taqlidiy vositalarning mavjud formalaridan foydalanadi, agar mos tushadigan bo'lmasa, noiloj ushanga taqlid qilishga majbur. Mana shunday hollarda agar bir tilning fonemalar sistemasi mos tushsa tushdi, tushmasa tarjimon fonologik qiyinchiliklarni aksariyat hollarda bartaraf etishga ojizdir. Bunday hollarda fonologik bo'shliq (fonologik lakuna) aynan ko'rsatib o'tilgan qiyinchiliklarni (fonologik kiyinchiliklarni) keltirib chiqarar ekan. Qiyinchiliklarni bartaraf etishda kal'ka qilish ko'proq qo'l keladi yoki bo'lmasa izoh berishga to'g'ri keladi.

Qiyoslash:

<i>O'zbekcha</i>	<i>ruscha</i>	<i>inglizcha</i>
<i>Vov-vov</i>	<i>gav-gav</i>	<i>bark-bark</i>
<i>Chug'ur-chug'ur</i>	<i>chirik-chirik</i>	<i>chirp-chirp</i>
<i>Voy!</i>	<i>Oy!</i>	<i>Auch!</i>
<i>Sharaq</i>	<i>shara</i>	<i>bang, slap</i>
<i>Kuk-kukuk-ku!</i>	<i>Ku-kare-ku</i>	<i>cock-a-dol-do</i>
<i>G'udranmoq</i>	<i>burchat'</i>	<i>to murmur</i>

Fonologik qiyinchiliklar, ayniqsa, bir tildan ikkinchi tilga bevosita ag'darib bo'lmaydigan fonologik hodisalarning mavjudligidan kelib chiqadi va tarjima tilining asl nusxa tilidan fonologik jixatdan o'zga til tipiga oid ekanligidan dalolat beradi. Bundan tashqari, shuni ham aytib o'tish kerakki, umuman tillar nutkning xar bir kurinishini ham yozuv orkali tula ifodalashga kodir emas. Misol uchun: aksa urishni, yutalishni, ogrik paydo bulgandagi ingrash kabi kupgina nutk elementlari xatda-ezuvda tulakonli ifodalash juda ham kiyindir, lekin ularni bartaraf qilish yullarini topish kerak.

I.2. Tarjimada shakl va mazmun birligining qayta yaratilishi

Tarjima qilinayotgan matn yoki nutqning qandayligidan qat'i nazar, bir tildan boshqasiga o'girilayotgan har qanday ish, ya'ni har qanday tarjima uchun umumiy bo'lgan ikki holat bor:

1. Tarjimaning maqsadi – asl nusxa tilini bilmagan kitobxon (yoki tinglovchi)ni o'sha asar matni (yoki og'zaki nutq mazmuni) bilan ilji boricha to'la, mukammal tanishtirish.

2. Tarjima qilish – muayyan til vositalari bilan bir karra ifoda etilgan narsani boshqa til bilan aniq va to'la ifodalash demakdir. (Tarjima – qayta ishlash, qayta hikoya qilib berish, qisqartirib bayon etish, nazira, tatabbu, taqlid, har xil “adaptatsiya”lardan o'zining xuddi ana shu aniqligi va to'laligi bilan farq qiladi.)

Adaptatsiya – soddalashtirish; qiyin matnlarni soddalashtirib berish demakdir.

Tarjimaning xillarini G'aybulla as-Salom quyidagilarga ajratadi:

1. Bir tildan ikkinchisiga qardosh yoki qardosh bo'lmagan tilga tarjima qilish,
2. Adabiy tildan – uning biror shevasiga va biror shevadan – adabiy tilga yoxud bir tilning shevasidan boshqa adabiy tilga tarjima qilish,

3. Qadimiy davr tilidan o'sha tilning hozirgi zamonaviy holatiga tarjima qilish (masalan, qadimgi frantsuz tilidan – hozirgi frantsuzchaga, qadimgi o'zbek tilidan – hozirgi o'zbekchaga tabdil etish).

Asl nusxada ifodalangan fikr bo'lak tilda ham xuddi aslidagiday to'la, aniq va ta'sirchan bo'lishi lozim. Bundan tashqari, tarjima o'sha asar o'girilgan tilning me'yoriga mos, muvofiq bo'lishi darkor.

Tarjima jarayonida ikki holat sodir bo'ladi. Birinchidan, tarjima qilish uchun dastavval o'girilayotgan narsani tushunish, aniqlash va talqin qilish kerak. Bu esa ona tilida ro'y beradi. Boshqacha aytganda, bunda tarjima unsurlari sodir bo'ladi. Ikkinchidan, tarjima qilish uchun asar o'girilayotgan tilda muvofiq ifoda vositalarini topish lozim. Bular: so'z, so'z birikmalari, grammatik formalar.

Tarjimaning asl nusxaga sub'ektiv, xolis bo'lmagan munosabati asl nusxaga, beixtiyor, o'zgacha ma'no berib qo'yishi, yo bo'lmasa uni ko'ra bila turib siyqalashtirishi mumkin, bularning hammasi shunga olib keladiki, asarga nomaqbul, ya'ni aslida bo'lmagan mazmun o'rniga o'zgacha ma'no berib yuboradi⁵.

Tarjima – forscha “tarzabon” so'zidan arabiylashib, o'zgargan (“tarzabon” – chiroyli so'zlovchi, notiq, tili burro kishi). Arab tilidagi “tarjimon” shaklida qabul qilingan, undan “tarjima” yoki “tarjuma” hosil bo'lgan. O'zbek adiblari bunday tushunchani “chevirish”, “o'tkazish”, “qaytarish”, “ag'darish”, “o'girish” singari atamalar bilan ifoda etadilar. Ko'p yillar davomida “tarjima” *sharh, tafsir, bayon qilish, tushuntirish* ma'nolarida ham qo'llanib kelingan.⁶ Umuman, tarjima deganda bir tilda yozilgan matn yoki aytilgan nutqning boshqa tilda qayta yaratilishi tushuniladi. Shu ma'noda tarjima xalqlar, millatlararo aloqa vositasi hisoblanadi. Tarjima hozirgi jamiyatimizning juda ko'p sohalarida amalda qo'llanilmoqdaki, bugungi kunda usiz taraqqiyotni tassavur qilib bo'lmay qoldi. Ayniqsa, axborot almashinuvi o'ta yuqori tezlik bilan amalga oshirilayotgan bugungi tezkor zamon tarjimonlarni anchagina shoshirib qo'ymoqda. Tan olishi kerak, bugunga kelib badiiy adabiyot sohasidan ko'ra ko'proq fan-texnika, iqtisodiyot va siyosanta oid yangiliklar tarjimasiga ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Badiiy tarjimaga rag'bat nisbatan susaygandaek tuyuladi.

Tarjima jarayonining mohiyati til faktlarining qiyosidan iborat bo'lsa-da, lekin bunda “qayta ifodalashning” (Pushkin) murakkab ruxiy jarayoni sodir bo'ladi. Badiiy tarjima orginal ijoddan tayyor ob'ektning mavjudligi bilan farq qiladi. Tarjimon mavjud asarga yangi ijtimoiy, adabiy va milliy muhit sharoitida yangi hayot bag'ishlovchidir. Adabiy hayotda, ko'pincha, orginal ijod bilan tarjima orasida farq kam seziladi. Maxsus ko'rsatilmasa, tarjima ekanligi bilinmaydigan asarlar ham bor. Bunday payitlarda “erkin”, “ijodiy”, “avtomatlashtirilgan”, “o'sha motivda” kabi aniqlovchilar ishlatiladi.

Tarjima tarixiy va dialektik tushuncha, har bir davr unga o'z mazmunini qo'shgan. Uning orginal adabiyot bilan munosabati ham har xil bo'lgan. Realistik tarjima talablariga ko'ra, tarjimon asl nusxaning san'at asari sifatida shakl va mazmun birligini qayta yaratishi, milliy va individual uslub xususiyatlarini saqlashi lozim. Bu tamoyillar qanchalik izchillik bilan amlga oshirilgani sari, tarjima jarayonining ichki dialektik ziddiyatlari shunchalik muayyanlasha boradi. Chunki, bu talab bir vaqtning o'zida asarni ham “o'z” adabiyotimiz xodisasiga aylantirishi, ham uning o'zga xalq ijodi namunasi ekanligi, “xorijiy kelib chiqishini” ko'rsatishni nazarda tutadi. Fikrimizni isboti sifatida Amerikalik adib Jays Styuart (Jesse Stuart)ning “Baxor tantanasi” (Spring Victory) xikoyasidan quyidagi parchani keltirishimiz mumkin.

“I'm going to make feed baskets,” Mom said. “People will always need feed baskets. I'm going to make them in three different sizes. I'm going to make peck baskets. Men will want pack baskets to carry eggs to town on Saturdays. They'll want them to carry salt, sugar and coffee from the store where they have a long way to walk. I'm going to make a half-bushel basket for it

⁵ А.В.Фёдоров. Основы общей теории перевода (лингвистический очерк). Изд-во. «Высшая школа», М., 1968, стр. 155-157.

⁶ Н.Комилов. Бу қадимий санъат. “таржима санъати” мақолалар тўплами. Ғофур ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашрети, Тошкент, 1976, 55-61. бетлар.

will be about the right size to carry corn to the fattening hogs. And I'm going to make bushel feed baskets."

"Oziq-ovqat uchun savat to'qimoqchiman", dedi oyim, "Odamlar bunday savatlarni doim ishlatishadi". "Men ularni uch xil o'lchamda to'qiyman. Shanba kunlari erkaklar shaharga borishganda tuxum tashishga qulay bo'ladigan savat to'qiyman, do'kondan tuz, shakar, kofe olib kelishda ham kerak bo'ladi. CHorva uchun ozuqa tashishga mos keladigan o'lchamda bushel (q 36,3 l) savat ham to'qisam bo'ladi. Don-dun, yem va cho'chqalarni semirtiradigan kepak tashishga ham qulay. Yana busheldan kichikroq qilib to'qisam ham yaxshi bo'ladi."

Ko'rinib turibdiki, asarda amerikalik fermer ayol nutqi ifodalangan. U qaxraton qishda erining qattiq betob bo'lib qolganligi sababli ro'zg'or mas'uliyatini o'z zimmasiga olyapti. Turli o'lchamlarda savatlar to'qib sotmoqchi. Lekin u to'qimoqchi bo'lgan savatlarni men o'zbek tiliga o'girishga qiynalдим. Sababi, Amerika qishloqlaridagi odamlarning xo'jaliklarida ishlatiladigan ro'zg'or buyumlari haqida batafsil ma'lumotga ega emasman. Amerikalik dexqonlar oziq-ovqat uchun qanaqa savat ishlatishlarini, yem-xashak uchun qanday o'lchamdagi savat ishlatishlarini bilmasligim ham tabiiy. To'g'ri Gollivud kinolarida ularga ko'zim tushgan bo'lishi mumkin. Ularni tasavvur qila olaman. Lekin bunday savatlar nomlarining o'zbek tilidagi muqobil ekvivalentlarini topish men singari yosh mutaxassislar uchun anchagina murakkablik qiladi. Shu birgina misol orqali tushundimki, tarjimondan nafaqat boshqa tilni balki o'z ona tilini ham o'ta chuqur bilishi, uni teran idrok eta olishi talab etiladi. Fikrimni isboti uchun oddiygina "peck basket" so'zining ma'nosini topish ilinjida qanday mushkulotlarga duch kelinishi mumkinligini aytib o'tmoqchiman. Inglizcha-ruchsa lug'atlarda "peck basket" so'z birikmasining tarjimasi berilmagan. Shuning uchun ham uni aloxida-aloxida olib tarjima qilamiz.

PECK - 1) mera so'puchix tel (q1/4 bushelya ili 9,08 l) **bushel** m bushel (Angliyada 36,3 Amerikada 35,2 litrga teng sochiluvchan narsalar o'lchovi); ~ **pshenitso'** bir bushel bug'doy. a) v Amerike ekvivalentna 537.605 kubicheskim dyuymam b) v Velikobritanii ekvivalentna 554.84 kubicheskim dyuymam 2) merno'y sosud (dlya izmereniya ob'ema so'puchix tel) 3) bol shoe kolichestvo; kucha, massa, mnojestvo Syn: multitude, great number, heap 1., lot 1. II 1. 1) a) udar klyuvom b) legkiy potseluy v) klevok (udar kakim-l. ostro'm orudiem) 2) sled ot udara, ot potseluya, pyatno'shko, vpadina, vmyatina, zasos Syn: prick, hole, dint, dot I 1. 3) yeda, piha Syn: food, provender 2. 1) a) klevat (at), dolbit klyuvom That bird makes such a terrible noise, pecking at the tree in search of insects. — Eta ptitsa, ujasno stuchit, kogda dolbit derevo v poiskax nasekomo'x. b) probivat, prodalblivat (klyuvom) 2), chmoknut They pecked the hostess farewell. — Na prohanie oni chmoknuli xozyayku (v heku). 3) drat sya klyuvom 4) a) othipo'vat (pihu klyuvom); malo yest b) pochti nichego ne poluchit, malo poluchit (ot chego-l.) I fear you can peck but little satisfaction out of it. — Vryad li eto prineset Vam bol shoe udovletvorenje. 5) a) pitat, kormit b) yest po chut -chut, yest s izo'skanno'mi manerami. Try to eat your dinner, Mary, you've only pecked at it. — Meri, popo'taysya s'est ujin, to' je tol ko chut k nemu pritrionulas. 6) zanimat sya (chem-l.) poverxnostno; zatragivat (kakuyu-l. temu) Let's deal properly with the question, instead of just pecking at it. — Davayte zaymemya etim voprosom ser yezno, a ne tak, na skoruyu ruku. 7) branit, pilit That new teacher is always pecking at our spelling mistakes. — Novo'y uchitel vse vremya rugaet nas za orfograficheskie oshibki. 8) kopat kirkoy (peck up, peck down)

BASKET - 1. 1) **korzina** to shoot at the basket — zabit myach v korzinu to miss the basket — ne zabrosit myach v korzinu 2) kuzov 3) otkro'to'e mesta, mesta ne pod navesom (v pochtovom dilijanse) •• be left in the basket — ostat sya za bortom give the basket — otkazat (svatayuhemusya) to have/put all one's eggs in one basket — riskovat vsem, postavit vse na kartu like a basket of chips ; — ochen mило, priyatno - pick of the basket 2. 1) klast v korzinu 2) a) brosat v korzinu dlya nenujno'x bumag b) otvergat kak nepodxodyahee (dlya chego-l.)

Your handwriting will cause our subeditor to "basket" your communications rather summarily. — Takoy pocherk vo'nudit nashego pomohnika redaktora dovol no bestseremonno otkazat sya ot tvoix soobheniy. 3) opletat provolokoy

Navbatdagi bosqichda, "peck" va "basket" so'zlarining konteksdagi ma'nolarini tanlab olamiz. Demak, "peck" o'lchov birligi, Angliyada 36,3 Amerikada 35,2 litrga teng sochiluvchan narsalar (guruch, bug'doy) o'lchovi. Muammo shundaki, o'zbeklarda aynan bug'doy yoki guruch kabi oziq-ovqatlarni o'lchash uchun maxsus o'lchov birligi yo'q. O'zbek tilida "put", "qadoq", "chaqmon", "paysa" singari o'lchov birliklari mavjud lekin ularni savat so'ziga qo'shib yangi so'z birligi xosil qilib bo'lmaydi. Ya'ni, "put savat", "qadoq savat", yoki "chaqmon savat" tarzida. Yana bir muammo shundaki savatda bug'doy yoki guruchni saqlash ham umuman mantiqqa to'g'ri kelmaydi. Sababi, o'zbeklar "savat" deganda orasi katta-katta ochilib navdalardan to'qiladigan ro'zg'or buyuumini tushunishadi.

I.3. Badiiy tarjimani qayta yaratishda mantdagi realiyalar o'rni va ahamiyati

Tarjimaning bosh xossasi uning boshqa til vositalari bilan qayta yaratishdan iborat ijodiy jarayon, so'z san'ati ekanligidadir. Masalan, balet ham san'at, ammo so'z san'ati emas, u erda umuman nutq ishtirok etmaydi ham. Muallifning muddaosi asarning g'oyasi, ballerining mahorati ularning hammasi musiqa, raqs va harakatlar bilan ifoda etiladi. Tasviriy san'atning asosiy quroli bo'yoq, san'atkorning dasturi mo'vqalamdir. Binobarin, balet tasviriy san'at obidasi, musiqa asari, haykaltaroshlik namunasi va hokazolarni bir tildan boshqa tillarga «tarjima qilish» haqida ran bo'lishi mumkin emas. So'zning fikrni ifodalash xususiyati, ta'sir quvvatiga asoslangan san'at sohasigagina tarjimani tadbiq etishi mumkin.

Badiiy tarjima badiiy ijod sohasidir. U bo'lak sohalardan farqli o'laroq o'z xususiyatlariga ega. Bu xususiyatlar badiiy adabiyotning tabiatidan kelib chiqadi. CHunonchi, agar fanda asosiy narsa obraz, tasvir va hikoya qilinayotgan voqeaning ta'sirchanligi muhim rol o'ynaydi.

Tarjima qilingan asarning qay darajada ta'sirli va tushunarli chiqishi bevosita tarjimonning tilni «bilish»i ga bog'liqdir. Buning uchun esa tilni faqat «bilish»gagina emas, uni tuyish, his qila olish lozim. Tarjimaning asosiy masalasi ham so'z muammosidir. Tarjima qilinayotgan asarning janr xususiyatlarini hisobga olish, tarixiylik, milliylik, badiiylik, uslub qiyinchiliklarini ham buning ustiga jamlansa, o'shandagina so'z san'atining bu turi haqida muayyan tasavvur hosil qilish mumkin. Tarjimada ikki xalq va ikki til, ikki did va ikki moddiy—ma'naviy hayot, ikki milliy san'at va adabiyot, ikki davr va ikki adib o'rtasidagi bir—biriga chirmashib ketgan munosabatlarning o'ziga xos ko'rinishi ham hisobga olinsa, ana o'shandagina insoniyat qo'lidagi bu ajoyib vositaning mazmuni to'la ayon bo'ladi.

Demak, tarjima til muammosi hamdir. Lekin, aytish kerakki, tilni ilmiy o'rganish bilan uni amaliy bilish o'rtasida farq bor. Bir xalqning tilidan boshqa xalqning tiliga tarjima qilish uchun esa har ikkala tildan ham chuqur xabardor bo'lish talab etiladi. Bundan tashqari, tarjimon o'zi o'girayotgan kitobda tasvirlangan xalq hayoti, tarixi, madaniyati, uning urf—odatlarigacha bilish lozim. Bular esa, umumiy tarjima muammosining ekstralingvistik masalalaridir.

Tarjimaning ekstralingvistik masalalari tarjima nazariyasida bevosita xos so'zlarni bir tildan boshqa tilga tarjima qilish yo'llari va usullari bilan bog'liqdir.

Ma'lumki, xalqlarning turmush tahliti, tirikchilik sharoitlari, urf—odat, rasm—rusum, irim—sirim, udumlari da juda katta farqlar borki, mavjud rosmna lug'atlardan ularning nomlariga muqobil so'z topib bo'lmaydi, agar topilgan taqdirda ham ulardan foydalanish qiyin, negaki, bunday so'z asarda tasvirlangan voqeaga o'zgacha milliy ma'no berishi mumkin. Buni esa tarjimachilikda realiyalar va ularni tarjima qilish usullariga bog'liq masala bilan ifodalash mumkin.

«Realiya» ko'plikda haqiqiy, moddiy narsalar faktlarning ifodalanishidir. Xos so'zlar muayyan bir xalq, millat va elatga xos tushuncha, narsa va xodisalarni aks ettiradigan lisoniy vositalar badiiy asarning milliy xususiyatini belgilaydigan asosiy vositalardan hisoblanadi.

Realiya soʻzi lotincha sifat soʻz turkumining koʻplik soni sredniy roddagi «realis» soʻzining koʻplikda realiya«moddiy, ashyoviy, haqiqiy» maʼnolarini anglatib, turli oʻxshash leksik kategoriyalar taʼsirida realiyaga aylanib ketgan. Realialar toʻgʻrisida, tarjimaning milliy oʻziga xos tomonini ifodalash, milliy kolorit va milliy spetsifika haqida oʻtgan asrning 50—yillarida koʻplab qiziqarli fikrlar, baxs—munozaralar yuritilgan. L.N. Sobolev oʻsha paytlarda nafaqat "realiya" atamasining maʼnosi, balki uning definititsiyasini keltirgan. G. V. Chernov, A.V. Fedorov, YA.I. Retsker, I. Keller kabi qator tarjimashunoslar realialar haqida, tarjimada ekvivalentlik masalasi, xos soʻzlarning lingvistik aspektlari toʻgʻrisida oʻzlarining nomzodlik dissertatsiyalari va ilmiy ishlarida turli fikrlar bildirishgan.

Realialarni adekvat tarjima qilish tarjima nazariyasi va amaliyotida badiiy asarlardagi milliy va tarixiy oʻziga xoslikni mukammal aks ettirish muammosi bilan uzviy bogʻliqdir. Tarjimada badiiy asarning milliy oʻziga xosligani, asl nushaning stilistik xususiyatlarini, badiiyligini saqlab qolishda realialarning oʻrni va mohiyati toʻgʻrisida bir qator mutarjimlar tomonidan turfa fikrlar bildirilgan.

"Realiya maʼlum bir mamlakatning davlat tuzilmasi, maʼlum xalqning tarixi va madaniyati, til muomallari va hakazolarning maʼlum millat tili nuqtai nazarida aks etishidir" A. V. Fedorov realialar deganda, original matndagi xududiy koʻrinishini ifodalovchi, biroq, oʻzga xalq hayotida yoki boshqa tilda mazkur soʻzning aniq bir ekvivalenti boʻlmagan soʻzlarning ifodasini nazarda tutadi. "Ekvivalenti boʻlmagan leksik birliklar deganda"—deb yozadi V.G.Krupnova, "narsa—predmet, jarayon voqea—hodisalarning oʻzga til tarjimasida mavjud boʻlmagan soʻzlarning va soʻz birikmalarining chet tilidagi koʻrinishidir".

YUqoridagi berilgan fikrlarga toʻldirish kiritish maqsadida L. I. Sobolev realialar deganda, maʼlum soʻz yoki atamaning boshqa davlat va millat tillarida mavjud boʻlmagan, ularni ayni bir soʻz yoki tushuncha orqali ikkinchi tilga tarjima qilib boʻlmaydigan atamalar nomini nazarda tutadi. Taniqli tarjima nazariyotchilari A. V. Fedorov, L.I.Sobolev hamda V. Rossel'slarning bu boradagi fikrlariga tayangan holda bolgar olimlari S.Vlaxov hamda S.Florinlar realiya tushunchasiga tayanada kengroq va batafsilroq toʻxtalib quyidagicha taʼrif beradilar:

«Realialar maʼlum xalq va millat tilining oʻzidagina aks ettiradigan narsa va predmetlar nomi, tushunchasi, shu xalqning geografik—xududiy jihatiga xarakterli boʻlgan, uning madaniy maishiy, ijtimoiy—tarixiy xususiyatlariga xos boʻlgan soʻz va iborasi, bir soʻz bilan aytganda, mazkur xalq vakillarining milliy, xududiy yoki tarixiy kolorita tushuniladi». Bunday soʻz va tushunchalarning aniq, va moe ekvivalenti boshqa tillarda umuman boʻlmaydi.

Tarjimashunos va tilshunos olim Gʻ. Salomov realialarni qoʻyidagicha taʼriflaydi: "Milliy oʻziga xoslik, xos soʻzlar (realialar) deganda, adabiy asarda tasvirlangan xalq hayotining moddiy hayot sharoiti, maʼnaviy turmush tarzi, tabiati, oʻrmon, togʻ, dala, suv, zamin, osmon hamda boshqa maxsus narsalar haqidagi tasavvurlari, tushunchalar, atamalar tushuniladi. Kiyimkechaklar, udumlar, urf—odatlar, pul birliklari va hokazolar ham milliy xoslik elementlari jumlasiga kiradi. Realiya — tarjima qilinishi mushkul boʻlgan, qoʻshimcha izohtalab xos soʻzlar, milliy yoki mahalliy kolorit komponentlaridir". Binobarin, Gʻ. Salomov "realiya" soʻzini xos soʻz deb berishni tavsiya qilgan. SHuningdek, tarjimashunoslikda yana bir narsaga ahamiyat berilishi kerakki, realiya har qanday soʻzga ham moe kelavermaydi. Ayrim hollarda xos soʻzlar—realiya emas, balki, termin ham deb yuritiladi. Tarjima jarayonida birinchi navbatda realiyaning termin bilan oʻxshashlik tomoni mavjud boʻlsa—da, biroq, ular oʻrtasidagi jiddiy farqli tomonlarni ham koʻrish mumkin. Koʻpchilik leksik birliklardan farqlagan holda, termin aniq tushunchani, predmet va voqea—hodisalar nomini ifodalaydi. Bundaylar faqatgina bir maʼnoni ifodalovchi aniq, boʻlgan, ayrim hollarda kelib chiqishi jihatidan chet tilidan oʻzlashgan soʻzlar yoki soʻz birikmalari boʻlishi mumkin. Ular orasida yana shundaylari uchraydiki, bular tarixiy cheklanganlikni ifodalovchi soʻzlar maʼnosi va mazmunidir. Bularning barchasini realialar va ularning mohiyati toʻgʻrisida gapirish muki. Undan tashqari bu ikki kategoriya, yaʼni realiya va termin oʻrtasida qanday realiya yoki termin ekanligini aniqlash mushkul boʻlgan birliklar qatori ham borki, ularni qoida asoslari boʻyicha taxlil qilinganda, bir vaqtning oʻzida

ham realiya, ham termin sanalishi mumkin. Taniqli tarjimashunos olim A. D. SHveytsar mazkur masala bo'yicha tadqiqot ishlarini olib borgan va bunday so'zlarni "termin—realiya" deb kiritishga xulosa qilgan.

Milliy xos so'zlarning mohiyat va mazmuni tilshunos olim A. Ermagambetovanning fikricha, realiyalar ayniqsa adabiy asarning milliy xususiyatlarini to'liq va tushunarli ifodalanishidadir. «Bu ekzotik so'zlarning xaotik to'plami emas, balki original leksik qismdan ajralgan holatdagi badiiy asarda berilgan haqiqiy tarixiy va milliy o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lgan koloritning ko'rinishidir», — deya ta'kidlaydi u.

Shunday qilib realiya badiiy ijodning til vositasi sifatida yozuvchining original badiiy asar muallifining shuningdek, belletristik tarjimonlarning bir xil darajadagi foydalanadigan til birligini ifodalovchi so'zlar tizimidir. YUqoridagi keltirilgan fikrlarga tayangan holda realiyalar deganda, ma'lum xalq tiligagina, milliy turmush tarziga xos bo'lgan so'zlar, milliy kiyimkechaklar, udumlar, taomlar, geografik nomlar, ismlar, tarixiy so'zlar, etnografik so'z va tushunchalar, atamalar nomlarini tushunamiz.

Realialarni tilshunoslik, adabiyotshunoslik hamda badiiy tarjima nuqtai nazaridan bir necha turlarga bo'lish mumkin. Realialarni turlarga ajratish fanda uzoq vaqt munozarali masala bo'lib kelgan. Ko'plab tilshunos olimlar realiyalar va ularni turlarga ajratish bo'yicha turlicha fikrlar bildirganlar va shular asosida realiyalar bir necha turlarga ajratilgan:

Realialarning narsa—predmetning ifodalanishiga kura bo'linishi; Xududiy bo'linish (milliy va lisoniy narsalar bilan bog'liq); Realialarni davr va vaqt bilan bog'liq xolda guruhlash; Xos so'zlarni tarjima qilinishiga ko'ra turlarga ajratish;

Realialarni narsa—predmetning ifodalanishiga ko'ra turlari;

Realiyalar predmetlarni ifodalashiga ko'ra geografik, etnografik, ijtimoiysiyosiy va tarixiy realiyalarga ajratiladi. Geografik realialarning o'zini uch guruhga ajratish mumkin: Geografik ob'ektlarning nomlari hamda metereologiya bilan bog'liq nomlar. Masalan, **preriya, tornado, pampa, pushta** va hokazo.

Kishi faoliyati bilan bog'liq bo'lgan geografik ob'ektlar nomlari, masalan: **pol'der, kriga, yazovir, grid, arik, chalto'k** va hokazo.

Endemik, ya'ni ma'lum joygagina xos bo'lgan tushunchalar. Masalan: **kivi, qor odam, sasna, dub** kabi va boshqalar.

Geografik realiyalar guruhiga mansub xos so'zlar, hoh u tabiiy geografiyaga, hoh ilmiy fanga oid—botanik geografiya, zoogeografiya, poleogeografiyaga mansub realiyalar bo'lmasin, ularning ko'pchiligi termin—realiyaga yaqin turadi. Shuning uchun ham ularni aniq ravishda realiya yoki termin deb xulosaga kelish birmuncha murakkablik tug'diradi. Masalan, rus tilidagi *step'* so'zi yashil olamga kiruvchi o'tsimon o'simlik hisoblanadi. Mazkur o'simlik ekvatorida uchraydi. Bu fikrni rus tili nuqtai nazarida tushuniladigan bo'lsa, u hech qanday realiyani bildirmaydi. Boshqa tomondan olib qaraganda, masalan, Vengriya chegaralarida *step'* ni dashtga nisbatan ishlatiladi. Bu esa haqiqiy tipik realiya sanaladi. *Step'* ni Shimoliy Amerikada kalta boshhoqsimon o'tloq bilan qoplangan maysazorga o'xshash keng dashtli erlar — preriya deb tushuniladi. Bu ham Amerikaga hos bo'lgan tipik geografik realiya hisoblanadi. YUqoridagi fikrlarga asosan xulosa qilinadigan bo'lsa, birinchidan, ***step'*** so'zi rod tushunchasiga nisbatan olingan atama xolos, realiya emas, uning boshqa ko'rinishlari — pushta, preriya va pampa xaqiqiy tipik realiya sanaladi;

-ikkinchidan, ushbu so'z geografik tushuncha sifatida boshqa tillarga transkriptsiya orqali kirib kelgan, ya'ni ingliz va frantsuz tillarida *steppe* nemis tilida esa *die Steppe* deb berilgan. Buni esa ham termin, ham realiya deb tushunish mumkin; uchinchi esa, taniqli yozuvchi A.P. CHexov o'z asaridagi *step'* ni o'simliklar turini emas, balki Rossiyaga hos xarakterli landshaftni tasvirlaydi, demakki, shubhasiz bu erda *step'* realiya sifatida ishlatiladi.

Yana bir misol: Sanskrit tilidagi djangalachakalakzor so'zi fonetik talaffuzi o'xshash shaklda ingliz tiliga *jungle*, frantsuz tiliga *jungle*, nemis tiliga *Dschungel*, rus tiliga esa *djungli* tarzida kirib kelgan. Mazkur so'z asarlarda va turli tillarda xalqaro termin sifatida ishlatiladi. Yirik lug'atlarda bu so'z hindiston o'lkasiga xos bo'lgan, shu erda ko'p uchraydigan chakalakzorni

bildiradi, deb talqin qilinadi. Bu esa o'z navbatida milliy xususiyatga ega bo'lgan xarakterli belgi sifatidagi realiyani fodalaydi. Boshqa tomondan olib qaraganda tillarga "chakalakzor"ning yanada keng ma'noli ifodasi kirib kelgan, ya'ni *zich chakalakzorlar, qalin botqoqliklardan iborat o'rmon* va hokazo.

Bundan tashqari bu so'z ko'chma ma'noda ham ishlatiladi. Masalan, rus tilida *'Djungala byurokratii», «Kammenno`e djungli»* kabi iboralar uchraydi. Bu esa tarjimada geografik realiyalarni ifodalashga diqqat bilan individual yondashish zaruruati borligini ko'rsatadi. Demak, tarjimon kolorit va kontekstni yaxshi anglab etishi, birinchi navbatda so'zning tarjima matnidagi ma'nosini bilishi talab etiladi.

Etnografik realiyalar ham realiyalarni predmet bo'yicha bo'lishuvchi guruhiga kiradi. Ularni quyidagicha tasniflashimiz mumkin: 1) maishiy xizmatga xos bo'lgan so'z va tushunchalar.

A) oziq—ovqat, ichimliklar va maishiy xizmat ko'rstuvchi korxonalar. Masalan: *pirog, cheburek, spagetti, qimiz, choyxona sauna, plov*, va boshqalar.

B) Kiyim—kechak nomlari.

Masalan: *Sari, mokasan, kubanka, do'ppi, paranji, varajeka, chima, chopon, chakmon* va boshkalar.

V) Uy —joy, idish—tovoq, jihoz nomlari.

Masalan: *izba, xata, piyola, bungalo, burjuyka, ko'rpacha*, va hokazo.

G) Transport vositalari.

Masalan: *Riksha, fiakr, keb, troyka, katamaron, kayuta, arava* va hokazo

D) Boshqa turkumdagi so'z va tushunchalar.

Masalan: *moxorka, putyovka, kizyak, dam olmshe uyi, hariyalar uyi* va boshqalar.

2. Mehnat bilan bog'liq realiyalar.

A) Mehnat egalari. Masalan: *udarnik, brigadir, tabel'chi, fermer* va boshqalar.

B) Mehnat qurollari. Masalan: *keshshon, tesha, guberka...*

B) Mehnat jamoalari. Masalan: *kolxoz, sovxoz, rapchi, agrokompleks brigadir, gil'diya* va hokazo.

1. San'at va madaniyatga xos realiyalar.

A) Musiqsa va raqs turlari. Masalan: *kazachok, lazgi, xor xoral, blyuz, xoppel'—poppel'* va boshqalar.

B) Musiqa asboblari. Masalan: *balalayka, tamtam, nay, banjo, fleyta, gusla* va boshqalar.

B) Fol'klor. Masalan: *chastushka, rupa, gazel, sog'a* va boshqalar.

Teatr. Masalan: *komediya, del'arte, misttsiya, xeping* va boshqalar.

D) Sana'ning boshqa turlari va predmetlar. Masalan: *ikebona, sina, makonder* va hokazo.

E) Ijrochilar, Masalan: *trubadur, akven, bard, cheysha, chetera* va boshqalar.

J) Urf —odatlar, rituallar. Masalan: *tya—no—yu (choy ichish rasmi), tamada, ramazon, ro'za* va boshqalar.

3) Bayramlar, G'yinlar. Masalan: *xottsa kuni, pasxa, hayit, g'alaba kuni, oster kuni, xolleven kuni* va hokazo.

I) Afsonalar. Masalan: *Qor bobo, gnom, vervol'x, uchar gilam, gor odam, gurka* va boshqalar.

Y) Diniy xizmatchilar. Maslan: *abbat, xo'ja, shamon, darvesh, xaj, machit, sinagoga, koste* va boshqalar.

K) Fasllar bilan bog'liq realiyalar.

Masalan: *saraton, vayshak, chilla, safar* va boshqalar.

2. Etnik ob'ektlar.

A) Etnonimlar. Masalan: *apax, bantu, baklar, ngopasanlar* va hokazo.

B) Laqablar. Masalan: *xoxol, Frits, SHveb, gorilla, pingvin, afandi* va boshkalar.

V) Yashash joyi bilan bog'liq xos so'zlar. Masalan: *gabrovlik, shop, k opaka* va boshqalar.

3. O'lchov va pul birliklari.

A)O'Ichov birliklari: *arshin, funt, yard, yan, pud, akr, kvarta, lot, mil'* va hokazo.

Pul birliklari: *lev, rubl', so'm, evro, dollar, frank, peseta, peso, rupiy* va hokazo.

V)Jonli so'zlashuvchi xos so'zlar: *sotka, chetvertishka, troyka, polovinka, chervonil* va boshqalar.

«Lison ut-tayr» asarida ham realiyalar tarjimasini alohida o'rin egallaydi. «Lison ut-tayr» asaridagi realiyalarni quyidagi guruhga bo'lishimiz mumkin:

- Kiyim bosh, oyoq kiyim realiyalari tarjimasini.
- Kasblar nomlarining tarjimasini. •Tasavvuf atamalarini tarjimasini.
- Diniy atamalar tarjimasini.
- Nomlar va ismlar tarjimasini.

II.BOB. Z.M. BOBURNING «BOBURNOMA» ASARI TARJIMASI HUSUSIYATLARI

II.1.«Boburnoma» G'arb va Sharqning mustaxkam ma'naviy ko'prigi

Jahon adabiyoti, madaniyati va san'ati xazinasini bunyod etish hamda boyitishda qadimiy va boy tarixga ega bo'lgan o'zbek xalqining ham munosib o'rnini, beqiyos xissasi bor. Uzoq tarixiy jarayon davomida xalqimiz dunyoga ko'plab ajoyib ilm-fan san'at va adabiyot namoyandalarini yetkazib bergan. Buyuk ajdodlarimiz yaratgan ilmiy, badiiy, qomusiy asarlar necha ming yillardan buyon turli xalqlar tomonidan mutolaa qilinmoqda, avaylab, e'zozla-nib asrlardan asrlarga o'tib kelmoqda, o'nlab tillarga tarjima etilib, iste'dodli kotiblar tomonidan ko'chirilib, mohir musav-virlar, naqshlarning mo'yqalami bilan ziynatlanib, insoniyat tafakko'rinini boyitmoqda, odamlarga ma'naviy zavq-shavq bag'ishlamogda⁷.

Bashariyat tarixining ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-madaniy sohalarida salmoqli o'rin tutgan siymolardan biri buyuk vatando-shimiz Zahridin Muxammad Boburdir. U 1483 yilning 14 fevralida Andijonda tavallud topib, 1530 yil 26 dekabrda Agrada vafot etgan. Bobur Mirzo ulug' shoir va adib, qomusiy ilm sohibi, ayni zamonda mohir lashkarboshi va yirik davlat arbobi ham edi. Uning she'riy devoni, «Boburnoma», «Aruz risolasi», «Xatti Boburiy», «Mubayyin», «Risolayi volidiyya» (tarjima) kabi ilmiy va badiiy barkamol asarlari bizgacha yetib kelgan. Bu asarlarning har biri o'zbek nazmi va nasri rivojida muxim bosqichni tashkil etish bilan birga, adabiy-badiiy fikr taraqqiyotiga qo'shilgan katta xissa, XV asr oxiri, XVI asr boshlaridagi O'rta Osiyo, Afg'oniston va Xindistonning tarixi, jo'g'rofiyasi, etnografiyasi, o'simlik va hayvonot olami, xalqi, odamlarining kasb-kori, tili, hayot tarzi va boshqa xususiyatlari haqida bebaho ma'lumotlarni o'zida mujassam etgan manbadir.

Shuning uchun ham mazkur asarlar, xususan, «Boburnoma» ko'p asrlardan beri Sharq va G'arb tarixchilari hamda boshqa fan sohalari vakillarining diqqat - e'tiborini o'ziga tortib kelmokda, ularning O'rta Osiyo, Afg'oniston, Xindiston va Eron tarixini o'rganishlarida muxim manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Sharq bilan G'arb o'rtasidagi madaniy, adabiy va ilmiy munosabatlar, o'zaro ta'sir tarjima san'atiga bevosita yoki bilvosita ta'sir o'tkazadi. Bu faqat tarjima nazariyasi va amaliyotigagina aloqador masala bo'lmay, juda keng mijkosdagi insonshunoslik (gumanitariya) muammosi o'laroq, oliy maktab tahsiliga kiritilishi lozim. Binobarin, insonshunoslik asoslari fani yaratilishi va u barcha oliy maktablarning tahsil rejalari-dan o'rin olishi kerak. Sababi, Sharq-G'arb munosabatlari tarixini bilmay turib, mustaqil O'zbekiston diyorining bugungi tashki va ichki iktisodiyoti va siyosati yo'nalishlarini tayin etish qiyin.

⁷ Жаҳонгашта «Бобурнома» Ғайбуллоҳ ас-Салом, Неъматуллоҳ Отажонов. Тошкент. 1996 й.

«Boburnoma» yevropada dastlab 1705 yilda Vitsen tarjima-sida golland tilida chop etilgan. Lekin sal oldinroq 1697 yili frantsuz sharkshunosi Bartolame Erballo Molenli «Shark kutubxonasi» komusidagi «Bobur yoki Bobar» nomli makolasida¹ Alisher Navoiy va Zaxriddin muxammad Bobur to'g'risida ilk bor ma'lumot bergan edi.

Bobur xayoti va ijodi, xususan, «Boburnoma»ni o'rganishda, uni keng targib qilishda frantsuz sharkshunoslarining munosib ulushlari bor.

A. de Longperie, A.J.Klaprot, J.Dranjete, Pave de Kurteyl frantsuz boburshunoslik maktabining atokli namoyondalaridir. Xozirgi zamon bo'lib shun o yeli gida Jan-Pol Ru va Jan-Lui Bake-Grammon salmokli o'rin tutadi.

Pave de Kurteyl 1871 yilda «Boburnoma»ni birinchi bo'lib asl nusxa tilidan frantsuz tiliga mukammal tarjima qildi.

1980 yili paryajda Mirzo Bobur tavallulining besh aerligiga bagishlab «Boburnoma»ning Bake-Grammon kalamiga mansub frantsuzcha tarjimasi nashr etildi. 1985 yili esa ikkinchi nashri chikdi. Mazkur nashrga frantsuz olimi Lui Bazen, tanikli o'zbek bobur-shunosi Saboxat Azimjonova, xind olimi Muxibul Xasan va afgon olimi Abdulxay Xabibiy aloxida-aloxida suz boshi yozganlar. yevropa matbuotida «Boburnoma»ning ushbu nashriga juda ko'p tak-riz va xabarlar chop etildi. Lui Bazen «Boburnoma» ni yozishga nima undagan, degan savolga javob berib, bunday deb yozadi: «... u boshiga tushayotgan savdolarni taqdiri azalning xukmi deb billi va ularni fidokorlik bilan aks ettirishi muxim, deb xisobladi».⁸

«Boburnoma»ni o'rganishga nemis olimlari xam xissa kush-ganlar. 1810 yili sharkshunos, sayyox va olim Yulius fon Klaprot tomonidan «Boburnoma»dagi Fargona vodiysi tasviri qismi nemis tiliga tarjima kilinib, «Osiyo adabiyoti, tarixi va tilshunosligi arxivi» kitobida Peterburgda chop ettiriladi. 1828 yili Leyptsigda A. Kayzer Jon leyden va Uil yam Erskinlarning inglizcha tarjimasini kiskartirilgan xolda nemis tiliga nashr ettiradi.¹

«Boburnoma»ni o'rganishda ingliz sharkshunoslarining roli benixoya katta bulgan. ingliz sharkshunoslari Bobur Mirzo shaxsiyati, shuningdek, uning shox asariga XIX asrning boshlaridan e'tiboran kizika boshladilar. Xindistondagi muzey, kutubxona, turli jamgarma va shaxsiy kutubxonalarda kupdan-ko'p qo'lyozmalar saqlanadi. Ingliz sharkshunosligining rivojlanishida shu omil xam katta axamiyatga ega bulgan.

Jon Leyden va Uil yam Erskinlarning ko'p yillik mexnatlari natijasida 1826 yilda «Boburnoma»ning inglizcha tarjimasi chop etildi. Ushbu tarjima nafaqat ingliz tilida, balki yevropada amalga oshirilgan birinchi tulik tarjima edi. Mazkur nashr Mirzo Bobur ijodini xamda «Boburnoma»ni chuqur va xar tomonlama o'rganishga yul ochib berdi. Uning yana bir axamiyati shundaki, bir qator tillarga tarjima, aynan, shu tarjimadan amalga oshirildi. Angliyaning uzida «Boburnoma»ning tukviz marta tulik va kiska shakllarda chop etilganining uziyoq bu asarga kizikishning naqadar kuchli ekanligidan dalolat beradi.

Ikki asr mobaynida «Boburnoma»ning uchta uch xil mukammal inglizcha tarjimasi nashr etildi va ular «Boburnoma»ni jaxonga mashxur etishda mislsiz axamiyat kasb etdi.

Turk dunyosida xam «Boburnoma» jiddiy tadqiq etilgan. Ularning ichida Turkiyada amalga oshirilgan nashri axamiyatga molikdir. Ushbu tarjimani yirik boburshunos professor Xikmat Boyir da'vati bilan o'zbek mumtoz adabiyotining bilimdonlaridan biri Rashid Raxmati Arat amalga oshirgan. Mazkur tarjima chop etilishidan oldin «Boburnoma»ning tula matni xech kaysi turkiy xalqning ommaviy nashrida yuk edi va X.Boltaboevning yozishicha,⁹ qo'lyozma, toshbosma va litografiya usulidagi nusxalarda xatolar ko'p bo'lib, ular asar xakida noto'g'ri tasavvur tugdirishi mumkin edi. «Boburnoma»ning 1948-1949 va 1960 yillardagi kirill alifbosiga asoslangan o'zbekcha nashrlarini tayyorlashda mazkur turkcha tarjimadan xam foydalanilgan.

⁸ www.literatura.uz

⁹ www.literatura.uz

1995 yilda turkiyalik olim doktor Bilol Yujelning «Bobur devoni» nomli monografiyasi chop etildi.¹⁰ Unda Bobur Mirzoning boshqa asarlari qatorida «Boburnoma» xakida xam ma'lumot berilgan.

Xindiston va Pokistonda xam «Boburnoma»ni o'rganishga yetarli e'tibor berilgan. Jumladan, asar boburiylar avlodidan bulmish Mirzo Nasriddin Xaydar Kuragoniy tomonidan urdu tiliga tulik tarjima kilingan va u dastlab 1924 yilda Dexlida, 1962 yilda esa Karachida chop tidgan. Bundan tashkari, «Bobur-noma»ning urdu tiliga yana bitta tarjimasi mavjud bo'lib, uni Rashid Axtar Nadviy amalga oshirgan va u 1965 yilda, keyin 1991 yilda Laxur shaxrida nashr etilgan, lekin mazkur tarjima tulik emas, boz ustiga fors tilidan ugirilgan.¹¹

«Boburnoma»ning xindcha tarjimasi 1974 yilda yangi Dexlida Xindiston Adabiyot akademiyasi tomonidan chop etilgan. Asarni tanikli mutarjim Yugjit Navalpuriy ugirgan.

Yapon olimi E.Manuning «Boburnoma» buyicha olib borgan tadqiqotlari taxsinga sazovordir. Bobur shunoslik tarixida birinchi marotaba «Boburnoma» tanqidiy matnining yaratilishining uziniyok olimning bu soxadagi eng katta xizmati, deb baxolash mumkin.¹

E.Manu 1995 yilda turtta turkiy (o'zbekcha) matn asosida «Boburnoma»ning tanqidiy matnini e'lon kildi. 1996 yilda esa «Kursatkichlar» jildini chop ettirdi. Ushbu jild mukammal suz boshi, asardagi barcha suzlarning tulik ko'rsatkichi, joy nomlari, ismlar va boshqa bir qator ko'rsatkichlar dan iborat. E.Manu xozirgi kunda «Boburnoma»ning yapon tilidagi tulik tarjimasi va Bobur davriga oid yirik tadqiqotini e'lon kildi.

«Boburnoma»ni o'rganishda rus olimlari xam munosib xissa kushganlar. «Biron-bir munosabat bilan «Boburnoma» bilan shugullanmagan bironta xam yirik rus turkshunosi yuk»ligining uziyoq rus sharkshunos olimlarining bu ulug asarga naqadar katta kizikish bilan yondashganlarini ko'rsatadi.

Bu ishni yakin shark tillari, xususan, arab tilining yirik bilimdoni Georg-Yakob Kerr boshlab bergan. U eski o'zbek tili buyicha bilimini takomillashtirish maqsadida «Boburnoma»ning qo'lyozmasidan nusxa kuchira boshlagan va 1737 yilda bu ishni nixoyasiga yetkazgan. Bu qo'lyozma 420 varakdan iborat bulgan. Fanda maxkur nusxani «Kerr nusxasi» deb atashadi.

G.Kernning nusxa kuchirishi bilan «Boburnoma» buyicha boshlagan ishi tuxtab kolgan va oradan salkam bir asr utgach, 1824 yilda rus sharkshunosi O.I.Sen kovskiy buxorolik tojir Nazarboy Turkistoniya karashli «Boburnoma» qo'lyozmasidan uz kuli bilan nusxa kuchirgan. «Boburnoma» materiallarini yaxshi bilganligi sababli «Djagatayskiy yazuk» nomli makolasida «Boburnoma» dan olingan ma'lumotlardan keng foydalangan. O.I.Sen kovskiyning shogirdi V.V.Grigor yev «Baber-name», «Baberidu» makolalarini yozadi. Bu yerda yana bir muxim faktni aloxida ta'kidlab utish o'rin lidir: rus adabiyotida Bobur Mirzoning xayoti va xarbiy yurishlarini «Boburnoma»dagi ma'lumotlar asosida birinchi bo'lib yoritgan mutaxassis V.V.Grigor yev bo'ladi.

1857 yil «Boburnoma» o'rganilish tarixida muxim sana xisoblanadi. N.I.Il minskiy Kozon shaxrida «Kerr nusxasi» asosida «Boburnoma»ni chop etadi. «Kozon bosmasi» deb nom olgan mazkur nashr fanda muxim vokea deb baxolandi va Garb sharkshunoslarining e'tiborini jalb kildi. bu bejiz emas edi, chunki «Kerr nusxasi»da nimaniki xato deb bilgan bulsa, olib tashlagan. Shuning uchun oradan ellik yil utgach, ingliz sharkshunosi A.S.Beverijxonim mazkur nashr va uning manbai bulmish «Kerr nusxasi»ga ishonchsizlik bildirgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur o'z davrining yirik davlat arbo-bi va sarkardasi bo'lish bilan birga, hassos shoir, adib, tarjimon va yetuk olim ham edi. U o'zidan bashariyatga boy adabiy va ilmiy meros qoldirgan. Bizgacha yetib kelgan asarlarining o'zi ham Bobur ijodining ko'p qirrali, janr jihatidan xilma-xil va rang-barang-ligini ko'rsatadi. Uning asarlarida inson va tabiat go'zalligining muhibi, eng yaxshi axloqiy fazilatlarini qadrllovchi, ro'y bergan ta-rixiy voqealarni aniq aks ettiruvchi, zulm va riyokorlikni qora-lovchi, tarixiy shaxslar faoliyatini xolis mushoxada qilib, olim-lar, shoirlar va san'atkorlar ijodiga zamonning ilg'or an'anala-ri nuqtai nazaridan

¹⁰ Dr.Bilal Yucel. "Babur devani", Ankara. 1995 y.

¹¹ Рашид Ахтар Надвий «Таржимаи тузуки Бобурий». Лохър. 1995 й. «Бобурнома» Дехли. 1974 йил.

baho bera oladigan alloma va donishmand siymosi kitobxon ko'z o'ngida namoyon bo'ladi. Bobur o'zining ana shunday ilg'or qarashlari, ilm-fan rivoji yo'lidagi xizmatlari bilan bashariyat tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk zot hisoblanadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Bobur ijodi O'zbekistonda, ba'zi bir istisnolarni hisobga olmaganda, XX asrning 40-yil-larigacha deyarli o'rganilmadi. Bunga asosan sho'rolar hukmronligi davrida olib borilgan mustabid siyosat, millatimizning atokli shaxslari, olimu fuzalo, shoiru musavvirlari hayoti va ijodini, bir so'z bilan aytganda, milliy qadriyatlarimizni o'rganishga bulgan salbiy munosabat sabab bo'lgan.

Shu o'rinda Respublikamiz Prezidenta I.A.Karimovning gap-lari e'tiborga loyiqdir. «XXI asrda, men ishonaman, madaniyat uchun, ilmu ma'rifat uchun jonini beradigan va buni hayotning asosiy maqsadi qilib qo'yadigan yangi avlod paydo bo'ladi. Biz ana shu avlod uchun yashaymiz. Biz ana shu oliyjanob maqsadlarni odamlar qoniga singdirish uchun harakat qilayapmiz. Biz kutayotgan avlod mana shu boylikni dunyodagi eng katta boylik deb bilsa, hayotini shunga baxshida etsa, bilingki, odamzot yorug kunlarga erishishi muqarrar».¹²

Dunyodagi hech bir xalq o'z-o'zicha, boshqa xalqlardan mutloq ajralgan holda yashay olmaydi. O'zga xalqlar hayoti bilan tanishishi esa asosan kitob orqali amalga oshadi. Kitob mutaraqqiy xalqlar hayotida mislsiz ahamiyat kasb etadi. Binobarin, boshqa el-elatlar-ni tanish-bilish, ular bilan ilmiy madaniy ayriboshlash uchun o'sha xalqlarning tillarida yaratilgan xoh ilmiy bo'lsin, xoh adabiy, tarixiy asar bo'lsin, o'z tillariga tarjima qilishga ehtiyoj sezadilar.

Ilm-fan va texnika benihoya taraqqiy topgan XX asrda davlat-lar o'rtasida aloqa o'rnatish, madaniy ayirboshlash va o'zaro muloqotga kirishishning juda qulay vositalari paydo bo'ldi. Chunonchi, telefon, telegraf, pochta, faks, internet va hokazo. Biroq bular hech qachon boshqa xalqlarning olimu ulamolari, adibu udobolari yaratgan kitoblar o'rnini bosa olmaydi. Shu bois, har bir mamla-katning ilmiy-madaniy saloxiyati unda kitob chop etish, jumladan tarjimachilikning qay ahvolda ekanligi hamda ko'lami bilan belgilanadi.

Jahon siyosati va madaniyati tarixida Zahiriddin Muxdmmad Bobur (1483-1530) qanday o'rin tutsa, uning qalamiga mansub «Boburnoma» ham dunyo sharqshunosligida, jahon tarjimachiligi tarixida shunday mavqega ega. XVI asrda yaratilgan mazkur asar tom ma'noda turkiy madaniyatning, xususan o'zbek ma'naviy qadriyat-larining faxrli namunasi bo'lib, uning tarjimalari ham jahon tarjimachiligi tarixida alohida bir bobni tashkil etadi. Mubo-lag'asiz aytish mumkinki, Sharq va G'arb olimlari orasida boshqa biron asar bu qadar katta qizikish uyg'otmagan, bu qadar sinchkovlik bilan o'rganilmagan.

Akademik. V.Zohidov haqli ravishda qayd qilganidek, «Rossiya va g'arbiy yevropa olimlari (Veselovskiy, Il minskiy, Erskin, Eduard Xolden va boshqalar) Boburga yuksak baho berganlar, u tarixda kamdan kam uchraydigan favqulotda xodisa deganlar. Ular Boburni tarixdagi o'sha vaqtlarga qadar bo'lgan lashkarboshi, diplomat, dav-lat arbobi va siyosat arboblarning eng atoqlilaridin biri, deb ataganlar. Bobur tomonidan adabiyotga, fanga kirilgan haqiqatdan ham buyuk hissani hayajon bilan qayd qiladilar».¹³

Bu buyuk asar G'arbu Sharq uchun qimmatbaho manba bo'lib qoldi.

«Boburnoma» asari ustida nafaqat adabiyot va tarixchilar balki 20 dan ortiq mutaxassisliklar shug'ullanyapti. (geologlar, geogriflar, etnogriflar) Bu borada olib borilgan baxs munoza-ralar O'rta Osiyo, Afg'on yurti umuman G'arbu Sharqqa ko'prik vazifasini bajarmoqda.

Bob xotimasida quyidagi xulosalarga kelindi. Bu yerda g'arb va Sharq manbalari, talqin va sharxdari mug'oyasa qilindi. Shu narsa anikdandiki, har bir mutarjim, muharrir va shori asarni o'z o'quvchisiga uzatar ekan, uni o'z davri, muxiti va maslagi nuqtai nazaridan tushuntirgan bo'ladi. Ammo bundan qat'iy nazar. so'zboshi, so'ngso'z. Lug'at, indeks, surat, chizma, xaritalarlar berilgan ma'lumotlar biz uchun aksariyat yangi va qiziqarlidir. Bu shorixdarning fikriga, da'vosiga, mavqeiga qo'shilish yoki qo'shilmaslik mumkin, ammo ularning mehnatini

¹² Каримов И.А. «Узбекистан буюк келажак сари», Тошкент; «Узбекистан» 1998, 311-6'

¹³ Зоҳидов В., «Бобурнинг фаолияти ва адабий-илмий меъроси» Ўз.Фан.ак. наш. Т., 1960, 50-51 бетлар

munosib tarzda baholamaslikka haqqimiz yo'q. Ilmda, bahsda hammaslak kishilarning ham, muta-saddilarning ham, muxoliflarning ham fikrini tinglashga tegishmiz. G'arb Boburshunosligi, tarjima ma'nosida, bir yarim asrdan ziyod tarixga ega. Bu davr ichida ingliz, farang, olmon va fors, turk tillariga qilingan tarjimalar saviya va sifat jihatdan sidirg'a va bir tekis emas. Ular orasida ibtidoiy darajada jo'n va nihoyatda puxta, mukammal tarjimalar ham uchraydi. Asliyatdan hamda vositachi (ikkinchi, uchinchi) tillardan kilingan tarjimalar ham ko'p. Masalan: turkiy-forscha-inglizcha, turkiy-forscha-inglizcha-olmoncha va hokazo. Ammo e'tiborga loyiq bir fikrni alohida qayd etishga to'g'ri keladi. Boburdan qilingan tarjimalar tarixi-da o'zining nazariy puxtaligi bilan fors tarjima maktabi (Abdurahimxon ibn Bayramxon), ingliz tarjima maktabi (Leyden -Erskin, Annetta Susan Beverij xonim), fransuz tarjima maktabi (A.Pave de Kurteyl, J. L. Bakye-Grammon) hamda turk tarjima maktabini (prof. Rashit Rahmati Orat), rus tarjimachiligini (Mixail Salye) lohida ajratishga to'g'ri keladi. Jahon boburshu-nosligining qalbini mana shu maktablar negizida yaratilgan ajoyib tarjimalar gashkil etadi. Bu jarayonda muayyan tarjimaviy tadrijiyot, tarjimaviy tamoyillar karor topdi. Bulardan tashqari, tarjimaviy uzviylik va vorisiylik an'anshlari yuzaga keldi (Leyden-Erskindan - A. Beverijgacha Pave de Kurteyl-dan - J. Bakye-Grammon - Rashit Rahmati Oratgacha, Ab-durahimxon ibn Bayramxondan Leyden Erskingacha...). Boburnoma tarjimalari negizida yuzaga kelgan Shark-g'arb hamda ilmiy ham-korligiga xos alomatlardan biri shuki, ular mazkur qomusiy manbaga noyob yozma adabiyot obidasi deb karab, uni umumturkiy mansublikdan umuminsoniy mulk darajasigacha ko'tardilar. Xalqaro madaniy hamkorlik namunasiga aylantirdilar. Natijada Vaqoe' qanchalik turkiy, afg'oniy, hindiy bo'lsa, shunchalik forsiy, inglizi, fransavvy manbaga aylandi. Insoniy madaniy kamolot va taraqqiyotning maslagi, matlabi va timsoli o'zi shu emasmi?

Yana bir kuzatish. Harbiy tarjimalar busbutun sharqona manbalarga (qo'lyozmalar va tarixiy risolalar) tayangan bo'lgani kabi (Mirzo Mahmud Xaydar Dug'lot, Mirxond, Xondamir, Gulbadan Begim, Abulfazl Allomiy...), sharqiy tarjima yoki tab-dillar (prof. Rashit Rahmati Orat) g'arb tarjimachiligi erishgan yutuklardan (Pave de Kurteyl, Leyden-Erskin, Annetta hamda Xen-ri Beverij, Elfinston, Lyukas Uayt Kmng...) farovon istifoda etdi. Shuningdek, Hindistonda Bobur Mirzo asos solgan Boburiylar saltanatining nechuk taqdir ila Buyuk Mo'g'ullar imperiyasiyaga aylanib ketganining tarixiy va ijtimoiy-siyosiy ildizlarini ochishga harakat qilindi. Yana shunga e'tibor qaratildiki, hozirgi vaqtda garchi bu tarixiy chalkashlik bir qancha g'arb sharqshunos olimlari, ilmiy doiralar tomonidan e'tirof qilingan.

Insonni daraxtga o'xshatishadi. Daraxt tuproqsiz bo'lmaganidek, inson ham ona Vatanisiz yashay olmaydi. Bu borada Alisher Navoiyning qo'yidagi ruboiysiga murojaat qilsak: G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish, El anga shafiqu mehribon bo'lmas emish. Oltin qafas ichra rap qizil gul bitsa, Bulbulga tikondek oshyon bo'lmas emish. Biz bu yerda qushlarmiz. Ammo Vataniga ucha olmaydigan qanoti singan qafasga tushgan qushlarmiz.

Bobur bir umr Vatan tuyg'usi, sog'inchi bilan yashadi. «Bahor kelganda sepilgan urug'larning tirsillab yorilayotgan isi dimog'imda anqiydi. Ko'z o'ngimdan Andijon o'tadi. Yaqindan ona yurtidan bir qovun keltirilib, o'ksindim. Ko'nglimda o'tu, ikki ko'zimda suv».

O'z hayoti davomida charxning ne-ne jabru jafolarini tortgan, «Ahli jahondin yaxshilig'»ni kam kurgan, sharoit taqazosi bilan «O'z yurtini qo'yib, Hind sorig'a yuzlangan» buyuk bobkalonimiz barakali ijod qilib, insoniyatga nodir badiiy-ilmiy asarlarni meros qoldirdi.

U tog'ik qabilalar orasida, urug'-aymoqdari, ona-si, birodarlari, g'arbiy chegaradagi do'stlari, bo-rikgki, barcha unga sodiq kishilar bilan yuz ko'rishdi Qotiring'a keldikim, tokay bu qilaetgan shahzoda atrofida uch marta aylanib, xudoga iltijo qildi. Bir oz vaqt o'tgach, u iltijosi qabul bo'lganini anik sezayotganini aytdi. Men murodimga yetdim! Men uni saklab oldim! degani eshitildi. Ko'p o'tmay Xumoyun sog'ayib Samboldagi qarorgohiga ketdi. Shohning salomatligi esa kundan-kun og'irlashib borar edi.

Boburnoma tarjimoni V, Erskin: Bobur tiynatining mislsiz belgisi uning boshqa mulkdorlarnikiga o'xshamasligidir. Osiyo tojdorlaridagi dabdaba, sun'iy sajiya o'rniga bizning

ko'z oldimizda Boburning tiynati tabiiy, hayotiy, sevuvchi, samimiy bo'lib gavdalanadi. Bobur taxtda o'tirishiga qaramay, oddiy turmushning eng yaxshi tuyg'ularini va ishtiyoqini o'zida saklab qoldi. Osiyo hukmdorlari orasida Bobur singari daho va iste'dodli kishilar kamdan-kam uchraydi. Uning faol akdi, qobiliyati va bevafo taqdirning nayranglariga qaramay, ruhining tetikligi... saxovati, marddosh... fanga, san'atga muhabbati va ular bilan muvaffaqiyatli shug'ullanishi kishini lol qoldiradi.¹⁴

Boburnoma inglizcha tarjimasining ikkinchi to'liq nashri muqarriri Lukas Uayt King:¹⁵ Memuar Sharq hukmdorlarining kundalik hayoti va g'arbiy faoliyati manzarasidir. Bu jihatdan mazkur memuarga Sharq avtobiografik xotiranomalarining birortasi ham teng kelolmaydi.

Ingliz olimi, xamda davlat arbobi Manstyuart Elfinston: Bu asar Osiyo haqqoniy tarixining yagona namunasidir. Bobur personajlarining tashkl ko'rinshpi, kiyim-boshini, urf-odatini, didini shunchalik tabiiy va aniq tasvirlaydiki, go'yo biz ularni Farg'ona viloyatida sargardon bo'lib turmoq kerak, bir tarafa talab qiloyin deb. Qaror hat'iy va jidtsiy edi. Un yidlar mobaynida u o'zining ona yurtida o'z tayanchlarini saklash uchun kurashdi. Bu yillar davomida tez-tez mening vatanim, mening odamlarim (my country and my people) deb gapirardi, Bu uning iymon-e'ti-kodi edi va bundan hech qachon qaytmadi ham. Birinchi marotaba u Sir daryosini (Sir River), ulug'vor shahar Samarqandni, o'zining ona diyori, vodiyni tark qilayapti. Biron joydan boshpana topib, qardonda qolgan oilasini yashirish uchun qat'iy qarorga keldy. Bu kat'iyat Bobur irodasining, Bobur saboti va matona-tining barqarorligini ko'rsatuvchi muhim alomatlardan biri. Bu alomatlarni o'zgartirib ham, yo'qotib ham bo'lmaydi. Bu barqaror-lik favqulodda shuhratparastlik hosilasi emas. U izlagay joy ovloq va yaydoq, unga shunchaki boshpana bo'lib qolmasdan, Samarqandnikiga monand bog'larni barpo qiladigan manzilgox, boshqa daryoning narigi sohilidagi shahar edi. U 25 yildan so'ng, o'ziga hamroh bo'lib kelganlar uchun shunday boshpana, yangi bir saltanat turdi. Aslida-ku bunday ishlarni amalga oshirishni xayoliga ham keltirmagan edi. Takdir tasodifi uni xonli-klarni tashlab chiqib ketishga, hayotida burilish yasashga, qismatida o'zgarish sodir bo'lishiga olib keldi. Bobur qalban sarguzasht izlovchi edi. lozimligini ta'kidlashdi. Masalan, bir necha yil ilgari o'ljaga olingan olmos bebaxo buyum bo'lib, uni sotib, pulini savob va saxovatli ishlarga sarflamok. lozimligini maslaxat berishdi. Biroq Bobur bu taklifni rad etdi. Yog'lining aziz joniga kech bir qimmatbaho buyumni almashmasligi. uning azob chekishini ko'rib, chidab tura olmasligi va uning o'rniga uz jonini fido qilishga qaror qilganini aytdi. Shundan keyin, aytishlaricha, xilvatxonaga kirib namoz o'kigach, jon taslim ko'rib, ular orasida yashagandek bo'lamiz.

Babur, the founder of the empire that was called with his name was a great commander, statesman and organiser. He was a great man of letters, poet, and scholar at the same time. He protected and encouraged the scientists and the artists. He was loyal to the principle stating that If your father enforced good laws, keep them in execution and in force. If these laws are bad, or if they do not meet the requirements, arrange the new ones. Therefore, he provided the activation of the laws and institutions. He developed them and annulled those that had become out-of-date or null and void.

The economic life in the Babur Empire was based on agriculture. Cultivation of vegetables," tobacco, opium had become widespread. Cotton was the product that was mostly produced and the textile was highly developed. Wool, cotton and siiken fabrics, and the handmade materials were sold to the Europeans, and few materials were imported from the foreign countries. Actually, the country had a sufficient economy that met the requirements of its population in those periods. Nevertheless, there were terrible droughts in the years with the lack of proper rainfall.

¹⁴ Вильям Эрскин. Бобур Ҳиндистонда. Инглизчадан Ғафуржон Сотимов таржимаси. Ташкент, 1995 йил, 98-99-бетлар.

¹⁵ Бобурнома. Ж. Лейден, В. Эрскин томонидан инглиз тилига Ғирилган. Лон-ло... 1921, 8-бет Дублин университетида араб ва форс тилларини профессор, хинд тарихи матахассиси

Great poets, men of letters and historians had been trained within Babur Empire. The architecture had developed to a high level, and the entire India was nearly covered with very beautiful works of art.

The biggest fault or mistake of the rulers that governed this Turkish Empire in India was that they did not increase the Turkish population in this country through foreseeing the future of the state. The present Turks had been in minority; and these Turks were employed as soldiers in the army or officials in the state affairs. As a result, the spoken and literary language that was Turkish in the period of Babur was left gradually after the period of Babur and it was gradually substituted by Farsi and then, Urdu languages. Urdu language (Orduca) developed as a mixed language that was used by the soldiers most of whom were Turks in order to understand each other. This language was composed of words that had been borrowed from Turkish language, Farsi language and the other Hindu dialects. This language is the official language of Pakistan today and it is spoken in most of the regions of India.

The religious life in India was so vivid. The religion of Islam had become widespread among the native people. There were more than one thousand of Muslim theological schools even only in Delhi. The movement of Islamic mysticism that approached from Turkestan also affected India and the religious orders of Sati, Nakshibendi, Kadiro, Shihrevardi, and Sema orders had become widespread in this region.

However, the most developed cultural and artistic branches in India were the architecture and literature. Taj Mahal that evokes the admiration of the entire world has been the symbol of delight, delicacy and mastery of Turkish architecture in India. We will introduce the work of Vekai (Baburnama) written by Babur Shah, the founder of this empire that has been considered as one of the most beautiful works.¹⁶

Bobur yoshligidan badiiy adabiyotga, she'riyatga qiziqqan, Atoiy va Sakkokiy, Lutfiy va Navoiy kabi o'zbek shoirlari, Xisrav Dehlaviy, Hofiz, Sa'diy, Jomiy kabi fors-tojik shoirlarining asarlarini qunt va sabot bilan mutolaa qilgan. U 1506 yil kuzida Hirotda bo'lganida Alisher Navoiy uyida yashagan, ulug' shoir asarlari bilan tanishib chiqqan va undan terma devon ham tuzib chiqqan.

Boburning bu risolasi Alisher Navoiyning «Mezon ul-avzon» asaridan so'ng turkiy tilda aruz asari vazni haqida yozilgan ikkinchi yirik tadqiqot bo'ldi.

«Boburnoma»da mamlakat va o'lkalar, shahar-qishloqlarning siyosiy tarixi bilan birga, tabiati, xo'jaligi, ilm-fani, madaniya-ti va boshqa jihatlarini xam mukammal tasvirlanadi. Masalan, muallif Kobul viloyatini tasvirlar ekan, uning jo'g'rofiy o'rni, chegaralari, yaylovlari, o'simlik va mevalari, dare va ko'llari, xalqi, uning kasb-kori, urf-odati, tili, savdo-sotiq ishlari va boshqalar haqida batafsil va qimmatli ma'lumot beradi.

Farg'ona viloyati beshinchi iklimdindir. Ma'muraning kanorasida vokr bo'lubtur. Sharq Koshg'ar, G'arbi Samarqand, janubi Badaxshonning sarxadi tog'lari, shimolida agarchi burun shaxrlar bor ekan, misli: Olmolik, va Olmotu va Yangikim, kutubda Utror bitirlar, mo'g'ul va o'zbek jixatidin bu tarixda buzulubtur, aslo ma'mura qolmabdur.

Muxtasar viloyattur, oshliq va mevasi farovon. Girdo-girdi tog' voqqi bo'lubtur. G'arbi tarafidakim, Samarkand va Xo'jand bo'lg'ay, tog' yo'qtur. Ushbu jonibtin o'zga xech jonibtin qish yog'iy kela olmas. Sayxun daryosikim, Xo'jand suyig'a mashzrdur, sharku shimol tarafi-din kelib, bu viloyatning ichi bila o'tub, g'arb sori okdr, Xo'jandning shimoli va Fanokat-nnng janubiy tarafidinkim, Shoxruxiyag'a mashxurdur, o'tub yana shimolg'a mayl kulib, Turkiston sori borur. Turkistondin xeyli kuyirok, bu daryo tamom umg'a singar, zech daryog'a otilmas,

Etti pora kasabasi bor; beshi Sayxun suyining janub tarafida, ikki shimol jonibida. Janubiy tarafidagi kasabalar: biri Andijondurkim, vasatta vokr bo'lubtur, Farg'ona viloya-tining poytaxtidur. Oshlig'i vofir, mevasi farovon, kovun va uzumi yaxshi bo'lur. Kovun maxdlida poliz boshida kovun sotmok raem emas. Andijonning noshpotisidin yaxshirok, noshpoti bo'lmas.

¹⁶ www.literatura.uz

Movarounnaxrda Samarand va Kesh ko'rg'onidin so'ngra mundin ulug'rok, ko'rg'on yo'qtur. Uch darvozasi bor. Arki janub tarafida voqi' bo'lubtur. To'qquz tarnov suv kirar. Bu ajabturkim, bir erdin xam chiqmas.

Kal'aning girdo-girdi xandaking tosh yoni sangrezalik shoxrox, tushubtur, Kal'aning girdo-girdi tamom maxllottur. Bu maxalla bila al'ag'a fosila ushbu xandak, yoasidog'i shoxroxtur.

Ovi kushi dog'i ko'p bo'lur, qirg'ovuli bexad semiz bo'lur. Andok, rivoyat kidilarkim, bir kirg'ovulni oshginasi bila to'rt kishi yeb tutata olmaydur.

Eli turkdur. Shaxri va bozorisida tur kiy bilmas kishi yo'k,tur. Elining lafzi alam bila rosttur. Ani uchunkim, Mir Alisher Navoiyning musannafoti, bovujudkim irida nash'u namo topibtur, bu til biladur.

Elining orasida xusni xeyli bordur, Xoja Yusufkim musig'ada mashxurdur, Andijoniydur. avosining ufunati bor. Kuzlar el bezgak ko'p bo'lur.

Yana bir Ush k,asabasidur. Andijonning sharqiy-janubiy tarafidur, sharqa moyil, Andijondin to'rt yig'och yo'ldur. Xavosi xo'b va okar suyi farovondur. Baxrri bisyor yaxshi bo'lur.

Ushning fazilatida xeyli axrdis vorid bo'lubtur. Ko'rg'onining shark janubiy jonibida bir mavzun tog' tushubtur, Baroko'xg'a mavsum. Bu tog'ning kullasida Sulton Maxudxon bir xujra solibtur, ul xujradin kuyirok, ushbu tog'ning tumshug'ida tarix to'kduz yue ikkida men bir ayvonlik, xujra soldim, Agarchi ul xujra mundin murtafi'dur, vale bu xujra bisyor yaxshirok, vokr' bo'lubtur: tamom shaxr va maxallot oyoq ostidadur. Andijon rudi Ushning maxallotining ichi bila o'tub, Andijong'a borur. Bu rudning xar ikki jonibi bog'ot tushubtur, tamom bog'lari ruda mushriftur, binafshasi biser latif bo'lur. Okar suvlari bor, baxrri biser yaxshi bo'lur, kalin lola va gullar ochilur. Baroko'x tog'i domanasida shaxr bila tog'ning orasida bir masjid tushubtur, Masjidi Javzo otliq. Tog' tarafidin bir ulug' shaxjo'y oqar. Ushbu masjidning tashari saxri nishebro, sebgalik, pursoya, safolik, maydon voqif bo'lubtur. ar musofir va raxuzar kelsa, anda istiroxat kilur. Ush avboshining zarofati budurkim, xar kim anda uykulasa, ul shaxjo'ydin suv kuyarlar. Umarshayx mirzoning oxir zamonlarida qizil bila ok, mavjlik, tosh ushbu tog'da paydo bo'ldi: pichok, dastasi va takband va ba'zi nimalar ^ klurlar, xenli yaxshi toshdur. Fartona viloyatida safo va xavoda O'sh chog'lik, qasaba iuktur.

Yana bir Marg'inondur, Andijonning g'arbidadur, Andijondin yetti yig'och yo'ldur.

Yaxshi qasaba voqir bo'lubtur, purne'mat: anori va o'rugi asru xo'b bo'lur, Bir jins anor bo'lur, «donakalon» derlar, chuchuklugida zardolu mayxushlutidin andak choshni bor. Samnon anor (3 b) larig'a tarjix, klsa bo'lur.

Yana bir jins o'ruk bo'lurkim, donasini olib, ichiga mag'z solib kuruturlar, «subxrniy» derlar, biser lazizdur.

Ov kushi yaxshidur, ok, kiyik yovuk,ta topilur. Ela sorttur va mushtzan va pursharu sho'r eldur. Jangarali rasmi Movarounnaxrda shoyi'dur, Samarand va Buxoroda nomdor jangaralar aksar Marg'inoniydur.

Sozdyabi «Xidoya» Marg'inonning Rushdon ot-lik, kentidindur.

Yana bir Isfaradur, ko'xdoyada voqea bo'lubtur. Okar suvlari, safolik, bog'chalari bor. Marg'inonning g'arbi-janubidadur. Map-g'inon bila Isfara orasi to'kuz yig'och yo'ldur.

Musmir daraxtisi bisyordur, vale bog'chalarida aksar bodom daraxtidur. Eli tamom sort va forisiygo'ydur. Isfaraning bir shar'isida janub sori pushtalarning orasida bir parcha tosh tushubdur, «Sangi oyina» derlar, uzunlug'i taxminan o'n tari bo'lg'ay, balandlig'i ba'zi yeri kishi bo'yi, pastlig'i ba'zi yeri kishining belicha

Isfara viloyati to'rt bo'luk ko'xroyadur: bir Isfara, yana bir Vorux, yana bir So'x, yana bir xushyor.

Muxammad Shayboniyxon Sulton Mazdiudxon bila Olachaxong'a shikaet berib, Toshkand va Shoeruxiyani olg'on maxalda, ushbu So'x bila ushyor ko'xdoyalarig'a kelib, bir yilg'a yovuk, tankislik, bila o'tkarib, Kobul azimati kidim.

Yana bir Xo'janddur, Andijondin g'arb soriga yigirma besh yig'och yo'ldur. Xo'jandlin Samarkand xam yigirma besh yig'och yo'ldur, kadim shaxrlardindur. Shayx Muslixddin va Xoja Kamol Xo'jan dtin durlar.

Mevasi farovon va biser yaxshi bo'lur. Anori yaxshilika mashxurdur. Nechukkim, «sebi Samarkand» va «anori Xo'jand» derlar. Vale bu tasrixda Marg'inon anori ko'p ortukdur.

Ko'rg'on baland yerda bo'lubtur. Sayxun suyi shimol jonibidin oqar. Ko'rg'ondin dare bir o'k, otimi bo'lg'ay. Bo'ron bila daryoning shimol tarafida bir tog' tushubtur. Mevamo'l otliq, derlarkim, bu tog'da feruza koni va ba'zi (konlar topilur, Bu tog'da biser ynlon bor.

Xo'jandning ovlog'i va kushlog'i biser yaxshidur. Ok, kiyik, bug'umaryl, qirg'ovul va tovushoni ko'p bo'lur. avosi biser mutaaffindur, kuzlar bezgak ko'p bo'lur. Andok, rivoyat kildilarkim, chupchuk, bezgak bo'lg'ondur. Derlarkim, xavosining taaffuni shimoldag'i tog' jixatidindur,

Muning tavobiidin Kandibodomdur. Agarchi kasaba emas, yaxshigina kasabachadur. Bodomi yaxshi bo'lur. Bu jixatdin bu ismg'a mavsumdur. Xurmuz va industong'a tamom muning bodomi borur. Xo'janddin besh-olti yig'och shark, tarafi, dadur. Xo'jand bila Kandibodom orasida bir dashte tushubtur, Xadarveshg'a mavsumdur. Xamisha bu dashtta yel bor dur. Marg'inong'akim, sharkrdur, xamisha mundin yel borur. Xo'jandg'akim, g'arbidur, doyim mundin yel kelur: tund yellari bor. Derlarkim, bir necha darvesh bu bodiyada tundelga yo'luqub, bir-birini topolmay «Xo darvesh», «Uqo darvesh» deya-deya tamom xalok bo'lurlar, andin beri bu bodiyani odarvesh derlar. Sayxun suyining shimoli tarafidag'i kasaba-lar: bir Axsidur. Kitoblarda Axsikat bitir-lar. Nechukkim, Asiriddin shoirmi Asiriddin Axsikatiy derlar. Farg'onada, Andijondin so'ngra mundin ulug'ro kasaba yo'k,tur.

Andijondin g'arb sori to'kuz yig'och yo'ldur. Umarshayx mirzo muni poytaxt klib edi. Sayxun daryosi ko'rg'onining ostidin okar. Ko'rg'oni baland jar ustida voi' bo'lubtur. Xandakning o'rniga amik, jarlardur. Umarshayx mirzo kim, muni poytaxt qildi-, bir-ikki martaba tashq karirokdin yana jarlar soldi. Farg'onada muncha berk ko'rg'on yo'k,tur, Maxalloti ko'rg'ondin bir shar'iy yirokrok, tushubtur. «Dex, kujovu daraxton kujo» masalini g'olibo Axi uchun aytdbturlar. yarvuni yaxshi bo'lur. Bir nav' krvundurkim, «Mirtemuriy» derlar, andok, k,ovun ma'lum emas im, olamda bo'lg'ay. Buxoro ovuni mashxurdur. Samarandni olg'on maxalda Axsidnn va Buxoodin ovun kelturub bir majlisda kesturdum, Axi krvunining xech nisbati yo'k, erdi.

Ovi kushi bisyor yaxshi bo'lur. Sayxun daryosining Axi tarafi dashttur, Ok, kiyigi bisyor bo'lur. Andijon tarafi jangaldur. Bug'umaryl, qirg'ovul, tovushkirni ko'p topilur, asru semiz bo'lur.

Yana bir Kosondur, Axsining shimolida tushubtur. Kichnkrok, qasabadur. Nechukkim, Andijon suyi Ushdin kelur, Axi suyi Kosondin kelur. Yaxshi xavolik, yerdur. Safolik, bog'chalari bor. Vale safolik, bog'chalari tamom soy yokasida voi' bo'lg'on uchun, «po'stini pesh berra» deb-turlar. Safo va avoda Ush bila Koson elining taassubi bor.

Farg'ona viloyatining girdo-girdi tog'larida yaxshi yayloklari bor. Tobulg'u yig'ochi bu tog'larda bo'lur, o'zga xrch yerda bo'lmas. Tobulg'u bir yig'ochedur, po'sti qizil, aso qilurlar, qamchi dastasi xm qilurlar, kushlarg'a qafas qilurlar, tarosh qilib tir gaz qilurlar, xeyli yaxshi yig'ochdur. Tabarruklik bila yiro yerlarga eltarlar.

Ba'zi kitoblarda bitibturlarkim, «yabrux, us-sanam» bu tog'-lardadur, vale bu muddatta xar eshitilmadi. Bir giyox, eshitil-dikim, yettikentning tog'larida bo'lur, ul el «ayik, o'ti» derlar, mexrgiyox, xosiyatlik,, g'olibo mexrgiyoxdur, ul el bu ot bila aytur-lar,

Bobur Mirzoning nomini dunyo afkor ommasiga tanitgan, ishlarini jahon miqyosida shoyon etgan ham boshqa biror xalq emas, xuday shu inglizlarning o'zi bo'ldi.-Mabodo ularning eng fidoyi va halol, mard sharqshunos olimu umarolari, munahhidaari, hammadan avval Erskin, Leyden, Beverij singari tarjimonlari bo'lmaganida, vatandoshimiz Bobur-Yo'lbarsning tabaruk nomini bugungi mustaqil O'zbekistonimizda ham kim bilardi, balki kim bilmasdi ham. Nari borganda, ehtimol, uning sha'n-shavkati jumhuriyat yoxud Afg'oniston, Hindiston, Pokiston va Eron xudupdaridagina ma'lum bo'lardi, xolos.

II.2. BOBURNOMA ASARI TARJIMALARIDA VATAN TUYGUSI IFODALANISHI

O'zbekiston istiqlolni qo'lga kiritganidan sung odamlar tafakkurida asta-sekin tub uzgarishlar jilva ko'rsatib, ma'naviya-timiz, ma'rifatimiz, qarashlarimiz, qadriyatlarimizni idrok etishda yangilanish paydo bo'ldi. Bu yangilanish, poklanish, evrilishlar baxs, munozara, tanqid va taxlillar zamirida kezmogda.

Xar bir kalbi tiyrak, shuuri uygok odamda kelajakka qanday munosabatda bulish, vatan hamda millat taqdiri, kelajak avlod oldida masuliyat xissi uygondi. Saltanat va davlatchilik tarixini bunyod etish ziyolilarimiz, olimlarimiz zimmasida turibdi.

Tarixda shunday shaxslar bo'ladiki, ular ular millat taqdiri va taraqqiyotida mislsiz katta mavqe kozonadi. Zamonlar o'tadi, nasllar, avlodlar almashadi, qarashlar, urf-odatlar o'zgaradi, Taraqqiyot yoki tanazzul shu qadar evriladiki, tafakkur va tilda bir qadar mushtaraklik saqlansada, badiiy lisoniy-uslubiy ifoda vositalarida jiddiy siljishlar paydo bo'ladi. Gap xatto shunga borib yetadiki, bobokalon ulug'larimiz bilan goxo bir-birimizni tula anglab yetmaydigan bo'lib qolamiz.

O'zligini anglay boshlagan xalqimizda «Nima uchun Navoiyni tushunmaymiz?» degan og'rikli antika savol bexudaga kundalang bo'lmayotibdi. Amerikalik tarjimon Viler Tekston yaratgan «Boburnoma» ning yangi inglizcha nusxasi matniga baxo bur ganda ham ana shu jixatlarni qat'iy ravishda xisobga olish lozim. Ushbu kitobning favkulotda qimmat shundaki, u mazkur noyob xotira nomani dunyodagi barcha ingliz zabon xalqlarning etiboriga musharraf etdi, ularni Movaraunnaxr, Xindiston, Avganiston, Xurosonda kechmish urta asr tarixining xakkoniy, jonli manzara-lari bilan baxramand kildi.

Ovrupo va olis Amerika ilmiy-madaniy muxitda «Boburnoma» ning shuxrat topishi osonlikcha kechmagan. Inglizlar bu manbani, «Kirish» qismida aytib o'tganimizday, kariyb ikki yuz yildan buyon kuzatib, tadqiq kilib kelmoqdalar. Taqdiri qaranki, Bobur mirzoning nomini dunyo afkor ommasiga tanidgan, ishlarini jaxon miqyosida shoyon o'tgan ham boshqa biror xalq emas, Boburiylar saltanatiga xotima bergan inglizlarning o'zi bo'ldi.

Tarjima mutaxassislarning yakdil e'tiroficha, mashhur xind eposi «Ramayana», badiiy so'z qudratining yuqori ekanligidan tashqari, yana bir qator o'ziga xos jixatlari tufayli ham boshqa tillarga o'girish uchun benixoya beungay asar xisoblanadi. Unda tasvirlangan voqealar, tushunchalar, irim - sirimlar, urf -odat vataomillar, udum va marosimlarning aksari faqat xindlarning uzigagina tushunarli bo'lib, bu asosan ularning diniy va dunyoviy qarashlaridagi o'ziga xosliklardan kelib chikadi.

«Boburnoma» ham, o'girish nuqtai nazaridan, «Ramayana» tipiga mansub asar. Unda muallif, garchi asarni ilk bora o'z asl matnida nashr qildirgan rus olim, tanikdi turkshunos N. M. Il minskiy o'z so'z boshisida kayd qilib o'tganiday, «ijodida tilning tumtarokli bulishiga sira ham intilmagan va shubxasiz, Navoiy asarlari tilidan iborat olgani xolda, o'z shaxri Andijon sof xolda sakday olgan»¹ bulsada, asar da Movarounnaxr xozirgi Afgoniston va Pokiston, Xindiston xududiga o'nlab xalqdar xayotiga oid xususiyatlar, bu yurtlarning geografiyasi, axolisining tili, tarixi, xayvonot va nabotot olamiga doyr bexisob ma'lumotlarni keltirib o'tadiki, bayonda qo'llangan istilox va atamalar ma'nosining tagiga yetish uchun ham juda ko'p izoxlar, sharxlar lozim, buning ustiga «Boburnoma» matnidagi juda ko'p kalimalarning ma'nosi xozirga qadar mavjud lug'atlarda qamrab olinmagan.

Endi turk tarixi va nasrining bu benazir namunasi, qomusiy manba bo'lmish Boburnomaning G'arb mamlakatlarida nashr etilish sanalariga e'tibor qilay.

1. J. Leyden, V. Erskin. Edinburg, 1826 (ingliz tilida).
2. A. Kayzer. Laypsig, 1828 (olmon tilida).
3. A. Pave de Kurteyl. Parij, 1871 (fransuz tilida). Boburnoma
4. A. Beverij. London, 1905 (ingliz tilida).
5. J. Leyden, V. Erskin (L. U. King) Oksford, 1921 (ingliz tilida)
6. A. Beverij. London, 1922 (ingliz tilida).
7. J. L. B. Grammon. Parij, 1987 (fransuz tilida).

Asarning g'arb tillari: ingliz, olmon, frantsuzchaga to'la tarjima qilinish tarixi bir yarim asrlik davrni qamrashi ko'rinib turibdi, Qiyos qilaylik: 1926 va 1848 yillar. Lisoniy ifodaga aylantirsak, Mavloni Boburnoma Ovrupoda keng tarqalib, jahon kezib yuribdilaru, biz, uning qonuniy vorislari, nakt 162 yildan keyin asarning atigi birinchi qismini o'z vatanimizda chop etishga erishibmiz...

Aytib o'tildi; g'arbda paydo bo'lgan barcha nashrlarni ham birday baholab bo'lmaydi. Ular orasida maqsad va nashrlar sifati har xil. Ammo bir narsa aniq. Nima bo'lgandayam, aynan g'arb boburshunosligi harakati tufayli bizning diyorimizda, hatto eng tarixiy badbin va turg'unlik yillarida ham bu olam-shumul qimmatli manbaga bir qadar e'tibor berildi. Ulug' davlatchilik da'volari, ashaddiy mankurtizm falsafasi birmuncha izin berishga majbur bo'ldi.

G'arb sharqshunosligida Boburnoma talqini va tarjimalarining sifati bir xil emas, dedik. Ammo bu, o'z-o'zicha olganda, tamomila tabiiy hol. Tarjimaning takomillashuvi, sifatining oshib borishi tadrijiy sajiyaga ega, G'arb boburshunosligi, agar nashrlarning yoshini e'tiborga olinsa, kamida uch avlod olimlar va tarjimonlar tomonidan barpo etilgan, qachonki, o'zimizda bu bor-yo'g'i bir pusht avlod-ning mehnati samarasi bo'lib qoldi. G'arb boburshunosligida bu azamat tarixiy, ma'rifiy tarjimaviy ish muayyan aniq uzviylik, izchillik, davomiylik, vorisiylik asosida takomillashib bordi. Chunonchi, bir avlod mutaxassislari, bir til namoyandalari bosh-qalaridan tajriba o'rgandi, takomillashib borgan ilmiy inkishof-lar, tarxdar, tadoriklarni qabul qilib oldi. Ularni yanada takomillashtirdi. Ayyomiga yetkazdi.

Sa'y - xarakatlar, chekilgan zaxmatlar, asarning ich-ichiga kirib murakkab, ba'zan chalkash turkiy va forsiy qo'lyozmalar, noyob tarixiy manbalar osha kirib borishlar bejizva bemaqsad emas edi. Xindistonda bunchalik uzoq davr xukm surgan temuriylar saltanatining ichki sir - asrorlarini o'sha saltanat asoschisining uz kuli va zexni bilan yozgan asarlari (komusiy xotiranomasi) dan kidirish lozimligini ular yaxshi tushunardilar.

Shu zayl, toshnirikka binoan bir necha sharkshunos olimlar, boburiylar tarixini o'rganish uchun, Xindistonga keladilar. Ulardan biri Jon Leyden edi (1775-1811). «Boburnoma» ni ilk bor farang tiliga tarjima kilgan Pave de Kurteyl XVIII -XIX asrlarda Jon Leydenning ingliz

sharkshunosligida tutgan o'rnini ko'rsatib bergan, Uning yozishicha, Jon Leyden sharqshunos mutaxasis bo'libgina qolmay, o'z davrining mashxur fizigi va shoiri bo'lib tanilgan shaxe edi.

Jon Leydenning rafikasi Izabella Skott (Izabella Scott) Angliya davlatining tanikli a'yonlaridan biri, mashxur yozuvchi

Val ter Skottning singlisi bo'lib chikdi. Jon Leyden, «Boburnoma» dan kilgan nasriy va nazmiy A. Beverjiv xonim Boburning sadri bulgan Shayx Zaynning baxosini qo'yidagicha ta'riflaydi:

«Boburning ikkinchi satridagi ruxiy xissiyotga biron kushimcha qilishga o'zilik kilaman. Bir biriga zid fikrlar nimani anglatishini tushunib yetish mushkul. Bobur uzining ichki ruxii aks sadolarini she'rlarida nomoyon kiladi. Shayx Zayn butun vokea-larni nazmda tasvirlab, shunday shoirona uslubda davom etadi». «Bobur vokealar bitilgan saxifalarning satrlarining uzining oliyjanob kalbidan uzr suragan xolda, pushaymonlik qayfiyatiga chumib, o'z kalb yaralarini barmok tirnklari ila timdalab, tanbex pichogi bilan saralab kofiyaga olgan. Men bunday botiniy iloxiy misralarni nazarda tutgan xolda, uni tangriga bulgan tavba iltijosi va A'lo Xazratlarining aytgan betakror so'zlari xar qanday azoplarning suzlaridan ham qo'dratlirok, deb tushunaman.

A. Beverij xonim davom etib yozadi: Men Zayniddinning cheksiz zavk-shavk va dabdaba bilan tayyorlagan farmonini va Boburning turkiyona kamtarlik bilan yaratgan ishini biron-bir xind tilidagi risolalarda uchratganim va o'kiganim iuk. Bu shunchaki tarjima bulmay, Bobirning notiqiligini so'zlari zamirida yashiringan teran ma'nolarini, ijodiy saloxiyatini ko'rsatib turibdi. Tasvirlar go'zal bog'larning maftunkorligida namoyon bulganday lov-lov tovlanadi. «Boburnoma» Xindistonning tabiati va boyliklarini shoyon tasvirlash evaziga mukammallik kasb etganki, buni tadqiq kilayotgan kishi unga yangi biror dalil, birorta aniqrok qo'shimcha kirita olmaydi.»

«Boburnoma» chinakam xayratomuz asar. Bunday ishlarni uzini bus-butun ilmga, ijodga bag'gishlagan kishilargina yarata oladi. Xolbuki, Andijondan to Bengaliyagacha cho'zilib ketgan necha minglab chaqirim manzillarni, tosh-tuproklarni, saxroyu chullarni, qurklik va suvlarni gox otlik, goxi piyoda odimlab utgan, kulida kilichu shamshiri bilan urxo-ur, surxo-sur kurashgan dovyurak fotix, genggan va yengilgan tadbitor sarkarda yozgan bu xotoratlarni. Yozganda ham, faqat «voqeanoma» emas, xar biri dard bilan sug'orilgan benixoya purmazmun va go'zal she'rlar, diniy va dunyoviy risolalar, ajoyib-g'aroyib tarjimalar ham yaratgan ulkan bir mutaffakkir yozgan.

Biz «Boburnoma» ning uch inglizcha tarjimasi tarixida to'rt nomni tilga oldik: Jon Leyden, Vil yam Erskin, Anetta Beverij, Viler Tekston. Uch davrga mansub bulgan bu tarjimalarga xos umumiy xislat: Zaxiriddin Muhammad Bobur shaxsiga muxabbat, xislat: mardligi, yaxshi ishlardan xayratlanish, binobarin ana shu insoniy tuig'ularni ajib zavki ila millionlab inglizzabon kitobxonalarga iloji boricha to'kis va mukammal xolda yetkazishdan iborat.

Xozirga qadar «Boburnoma» ning deyarli barcha tarjimonlari e'tiborini tortgan yana bir atama- Xindistonning xayvonot olami xakida keltirilgan qismdagi suv mavjudoti kakka balig'i oid muloxazalarga e'tiboringizni tortamiz. Tarjimonlar bu maxluqqa turlicha ta'rif berishgan. Asl nusxada:

Yana kakka balikdir. Ikki kuloginining to'g'risi ikki sungak chikubtur, uzunligi uch ellik bulgay. Yotkonda bu ikki sungakni tebratadur. Garib tavr un keladu. Golibo ul uni jixatidan kakka debturlar.¹⁷

Leyden Erskinda: The Kakeh is another fish. On a line with its two ears issue two bones. (bony protuberances) three fingers breadth in length. When caught it shakes these two bones, which return a singular sound, whence they have given this fish its name of kakeh.¹⁸

Beverij xonim kakka baligi ovozi qo'yidagicha «eshitadi»: Again there is the kalah (or galah) fish (baligh). Two bones each with its ears; these it shakes when taken producing noise, whence, seemingly, people have called it kalah.¹⁹

¹⁷ Бобурнома 352-бет
' L E. (II. p. 224).

Beverijning saxifa ostida izoxlashicha «Xaydarobod» kulyoz-malari va Xindiston maxkamasi jurnallarida kay kilinishicha, kakka (galah) baligi katta qisqichbaka baliq demakdir deb aytilgan.

Xafton (Haughton) lug'atida bu kabi kakka baliklar Malayya suvlarida mavjud bo'lib, bengaliyaliklar uni gula - chingri (gula -sO'pdp)deb ataydilar. Galah va gula suzlari zorlanish, nolasimon ma'nolarni beradi. Kakka tutilgan on shu kabi zorlanish, iltijoga xos maxzun un chikaradi. Bu suzlar xaqorat, sukinish ma'nolarini ham anglatadi.²⁰

Vokeot forsiy tarjimasining ikki mukammal qo'lyozmasida kayd kilinishicha, bu muammo yuzasidan shunga uxshash muloxaza mavjud. V. Erskin kakka xususida biron tushunarli fikr aytmagan. Vularning talqiniga tayangan xolda, buning ma'nosi duduklanmok, deb aytish mumkin. Extimol, kimlargadir kakka ma'lumdir yoki bu avom tilida aytilgan suzdir. Ovozda maxzunlik, nola, iltijo, sukinish yoki duduklanish kabi ma'nolar balsa, balikchining uzi ajratib oladi. Shayx Zayn esa Bobur ta'rifini kuchaytirib, balik tutilayotgan paytda quloqlarining ostidan sungaklarini xarakatga keltirib, chuzilib boradi va kakka simon ovoz chikaradi, shuning uchun ham uni kakka deydilar, deb yozadi. Uzunligi yarim gazga yaqin, go'shti o'ta xushta'm va tuyimli. Balikchi turiga to'shib qolganda, bir gaz balandlikka sakraydi, deb tushuntiradi Beverij xonim

Endi (bashoshat, bashirkat, bebadal, bodg vjfir, gush, daxr, uron, zarb, zarif, zoxir, yilkiron, kishvar, kutal, dastur, lavand, lak, mavsum, maxram, miskol, naksh, oyin, paygom, pur, savd, sarxad, siyok, somon, tunqator, tuyur, xom, xub, charx, shamshod, xizabrullo kabi suzlar taxlili misolida mushoxada va taxlil doirasini kengaytiramiz.

Xatto tabiatshunos olim, tarixchi va geograf sifatida sinchkov tadqiqotchi Boburga ham shoir va nosir Boburning jozibali qalami yordamga kelgan - turli jonivorlvr, o'simliklar, daryolar, tog'lar tasvirida, xar xil ijtimoiy voqealar qiyosida muallifning ularga munosabati ravshan ko'rinib turibdi, natijada xar bir vokea tasvirida Boburning o'z tiynata, fe'l -atvori ochila boradi.

Shu o'rinda bir misol. Ibroxim Ludiyning mag'lub bo'lishi sababini izoxlar ekan, Bobur shunday satrlarni bitadi: g'animning xozir cherikini bir lak (yuz ming - I. S) chenarlar edi. Uzining va umarosining ming - ikki mingga yovug' fili bor derlar edi. Ikki otasidan qolgon xazina xud nakd iligida edi, Xindustonda rasme bordurkim, mundog' ishtutganlarda yarmok berib, miyod bila navkar tutarlar, Bu elni bidxindiy derlar. Agar mundog' xayol qilsa edi, bir lak - ikki lak ham navqar tuta olur edi. Tengri taolo rost kelturdi, ne yigitini rozi kila oldi, ne xazinasini o'lasha oldi. Qanday yigitni qila olurkim, tabiatiga imsok ko'p qolib edi. O'zi yarmoq yigishtirmoqqabexad tolib betajriba yigit edi. Ne qilishi saranjomlik edi, ne turigdi, ne yurishi, extimomlig edi, ne urushi

Ana shu kichik parchaning uzida Boburning Ludy singari odamlarga bir shaxe sifatidagi munosabati ham, xarbiy iqtidori, soxibtadbirligi va quli ochikligi ham yaqqol namoyon bo'ladi, «Boburnoma» matnida muallifning iztirob bilan bitgan g'azal va ruboiylari, odamlar aro munosabatlarning murakkabligidan chiqargan falsafiy xulosalari, makol va matallar, ajoyib o'xshatish hamda qiyoslashlar asar jozibasini ortiribgina qolmay, undan ham avval Bobur siymosini inkishof eta boradi. «Boburnoma» xuddi ana shu jixatlari bilan ham mutarjimlar uchun g'oyat jozibali asar xisoblanadi, Boburga maftun bulgan, uzining butun ijodiy umrini Bobur xayoti va «Boburnoma» ni tadqiq etishga bag'ishlagan fidoyi adiba Anetta Susanna Beverij xonim 23 yillik og'ir, sharaflı mexnati samarasini ota - onasiga emas, «Boburnoma» tarjimasiga undagan umr yuldoshi Xenri Beverijga ham emas, balki Boburning o'ziga, uning sharafiga nisor kildi. «Boburnoma» tarjimasining zarvaragiga «This work is dedicate to Baburis Gate»²¹ (Bu asar Boburning shon - shavqatiga baxshida etildi) degan xayajonli so'zlar bitib qo'yilgan.

¹⁹ B. (502)

" Haughton, (931,933,952)

²¹ «Олтин даврим» газетаси. 2005 йил 22 февраль.

III. BOB . «BOBURNOMA»NING INGLIZCHA TARJIMALARIDA TABIAT MANZARALARI TASVIRINI QIYOSIY TAHLILI

III.1. «Boburnoma»da joylar va tabiat manzaralari tasviri

«Boburnoma» da o'ttiz olti yillik voqealar (ayrim o'zlash-larni xisobga olmaganda) bayon etiladi. Tabiiyki, bunday ulkan xotiranoma bir vaktida va bir xil kayfiyatda yozilgan emas. Shunga binoan, qolaversa, tasvir etilayotgan voqealarning, shaxslarning muallif xayotidagi ahamiyatiga qarab tasvir etilayotgan voqealarning, shaxslarning muallif xayotidagi ahamiyatiga qarab tasvir tarzi va xatto uslubi ham gox falsafiy uychan, gox diltang, goxo esa shodumon va goxo xazin oxang kasb etadi, Ingliz tarjimonlari, «Boburnomaning» ratsional axborotini to'g'ri berishga intidish barobarida, uning emotsional jixatlarini muallif-ning kayfiyatini, uslubini kay darajada tiklay olgan ekanlar?

Masalan, Bobur Daxkat qishlogi atrofida garib va ozurda bo'lib yurgan kunlarini bayon qilgan ekan, matn oxangida ham shunga yarasha ma'yuslik, xazinlik seziladi. Ranglar qorongudashganday, tasvir og'irlashganday, xatto Bobur yuldozlarining xazil mutoyabalarida ham qandaydir umidsizlik xislari borday:

Daxkatda ekanda Daxkatning g'ird va navoxisidagi tog'larni hamisha yayov yurur edim. Yalang oyok ko'p yurgandin oyoqlarim andok bo'lub edikim tog' va tosh tafvut qilmas edi. Ushul sayr asnosida bir kun namozi digar bila namozi shom orasida bir inichka nomushaxxas yul bila bir uy tushu b boradur edi. Men dedimkim, bu yul qayonga borur ekin? Uyga kuz soling, uyni iturmang, to yulning qay sari chikari ma'lum bulg'ay. Xoja Asadullo zarofate kildi, dedikim: «Gov g'um shavad, chiqor kunem?»

Sha'bon oyida oftob dalv burjida edikim, Kobo'ldin Xindus-ton azimati bila o'tlanildi. Bodom chashma Jigdalig yuli bila ora olti kunub Odinapur kelildi. Garmser viloyatlarini va Xinduston navoxasini xargiz qurulgan emas erdi. Ningnaxorga yetgach, uzga olame nazarga keldi: giyoxlar o'zgacha va yigochlar uzgacha va vuxush o'zgacha va tuyur o'zgacha, el va ulsning rox va rasmi o'zgacha; xayrate bo'ldi, filvogi'joyi xayrattur.

Bobur Xind zaminiga qadam qo'yganida boshqa bir olamga kirib qolganini tasavvur kilib, xayratlanib, zavk - shavkdan jo'shib, bu zaminni xayrat bilan' tasvirlaydi. Uning xar bir kalimasida kishi ko'z ungida yangi bir olam yastanadi.

Karangki, Ningnaxorga yetgach, nazarga kelgan bu uzga birolamda nabotot dunyosi oddiy giyoxdan tortib, ulkan sarv daraxtlarigacha;

Vuxush (vaxshiy xayvonlar) o'zgacha va tuyur (qushlar) o'zgacha kapalakdan, baliqdan tortib, daxshatli timsoxlargacha, sayroki sa'vadan tortib rang - barang tuti- yu tovuylargacha bari uzgacha, deydi muallif.

El - ulusning rox va rasmi uzgacha: ilon o'ynatuvchidan boshlab beva qolgan ayolni marxum eri bilan olovda quydirishtacha bo'lgan manzaralarni Bobur ana shu mu'jaz mukaddima parchada jamlaydi. Ana endi tarjimalarga nazar tashlaylik

Leyden - Erksinda: In the month of Shaban, when the sun was in Aquarius, I set out from Kabul towards Hindustan and proceeding by way of Badam - chashmeh and Jigdalik in six marches reached Adinapur I had never before seen the Hindistan. Immediately on reaching them I beheld new world. The grass was different, the wild animals of a different sor, the birds of a different plumage, the manners and customs of the Ills and Uluses (the wandering tribes) of a differnt kind. I was struck with astonishment, and indeed there was room for wonder.²²

Beverijda: It was in the month of Shaban the sun being in Aquagius, that we rode out of Kabul for Hindustan, We took the road by Badam - Chasyma and Jagdalik and reached Adinapur in six marches. Till that time I had never seen a hot country or the Hindustan border - land. In Ningnabar another world came to view, other grasses, other tress, other animals, other birds and

²² Memories of Zahir-ed-din Muhammed Babur. William Erskin, John Leyden. Oxford Univ. press 1921 (251 p.) " Beveridge, New Dehli

other manners and customs of clan and horde, We were amazed, truly there was ground for amaze.²

Tekstonda: the month of Shaban (January 1505) When the sun was in the sign of Aquarius we rode out of Kabul for Hindustan.

Stopping six times overnight on the Badam Ghashma and Jagdalik road, we came Adinapur. I had never seen a hot climate or any world came into - view - different plants, different trees, different manners and customs. It was astonishing, truly astonishing.²³

Tarjimondar muallifning ko'tarinki ruxiy kayfiyatini u yaratgan manzaraning o'zidanok anglab yetganlar. Leyden -Erskinlar esa ayni so'zni muqobilini topishga intilib different (rang - barang) so'zini qullashgan. Mullif uslubini qayta tiklash borasidagi maxorati shundaki, keyingi tarjimada jumlar boburona ixchamlilik va aniklik bilan berilgan. Bu yana shunda ham ko'rinadiki, ayni parcha oxiridagi xayrat bo'ldi, filvoke joyi xayrattur jumlasini berishda ham yaqqol ko'rinadi: tarjimon It was astonishing, truly astonishing deya badiiy san'at qullab yakunlaydi. Demak, tarjima tarjimondan nafaqat yaxlit bir asar yoki muallifning kayfiyatini, balki, xar bir jumla, parcha, qism kayfiyatini aniqlashni talab etadi.

Chinakam so'z ustasining uslubi o'z zamondoshlarigina emas balki kelajak zamon kitobxonlariga ham ta'sir etish qobiliyatiga ega, Ammo badiiy asar barcha xollarda ham daf'atan o'z kitobxonlarini topavermaydi. U o'zi manzur bo'ladigan xaridorlari, o'kuvchilarini topganiga qadar oradan uzoq, vaktlar o'tishi mumkin. Ana shunday qizikish paydo bklishi uchun asar original obrazlar silsilasigagina emas, balki puxta ishlangan uslubiy tizimga, yuksak estetik tuyguni yuzaga chikarish qobiliyatiga ega bo'lmog'i darkor.

Bu to'g'rida Boburnoma jafokash tarjimoni A. S.Beverij xonim Boburning sadri bo'lgan Shayx Zaynning Bobur ruxi va uslubiga bergan baxosini o'z tarjimasida keltirib o'tadi va unga qo'mcha qilib, «Boburnoma»da Xindistonning tabiati va boyliklarini tasvirlash asnosida asar shu qadar mukammallik kasb etadiki, buni tadqiq qilayotgan kishi unga yangi biror dalil yoki bironta qo'shimcha kirita olishi amri maxol deb yozadi.

Bobur nasrining o'ziga xos bir jixati muallifning umumlashtirish san'atidir. U o'kuvchida xajman ixchamgina parchadan ham bir dunyo ma'no olish imkonini beradi. Tasvir jilosi, lundaligi va undagi fikrlar ko'lami kishini xayratga soladi. «Boburnoma» muallifining uslubida asosan to'rt jixat yaqqol ko'zga tashlanadi. Birinchisi, Boburning atrof - muxitni idrok etishi, mavzu tanlashi va uni real va xatto naturalistik tasvirda berishi; ikkinchisi, shu mavzuni o'zining bilim doirasida ilmiy - amaliy taxlil qilib, badiiy tarzda ifodalanishi; uchinchisi, o'ziga xos uslub 'xar suzni rostini ' bitishi; to'rtinchisi, ana shu jixatlarni yuksak badiiy saviyada o'kuvchiga yetkazish xussiyatidir.

Boburdagi taqqoslash uslubida tabiat manzaralari aloxida o'rin tutadi. Muallifning qiyosiy taxlil uslubi qancha o'zi ko'rgan, kuzatgan narsalarda namoyon bo'lib, ayniksa tabiat manzaralarini yoritishda ulardan keng foydalanilgan masalan: Yana bir Kosondur. Axsining shimolida tushubtur. Kichikrok kasabadur. Nechuk kim Andijon suyi Ushdin kelur, Axxi suyi Kosondin kelur. Yaxshi xavoli yerdur. Safolig bog'chalari bor. Vale safolig' bog'chalari tamom soy yoqasida bo'lg'on uchun pustini pesh berra debturlar. Safo va xavoda O'sh bilan Koson elining taassubi bor.

Muallif parchadagi manzara tasvirini taqqoslash uslubida yaratilganligi tarjimondarga ma'lum bo'lsa ham parchada o'rin olgan «pustini pesh berra» iborasini aks ettirishda qiyinchilikka duch kelganlar. Da'voning isboti uchun ayni jumla tarjimalarini taxlil kilamiz.

Leyden Erskinda: In consequence of its gardens being all sheltered along the banks of the stream, they called it the mantle of five lamb -skins,²⁴

²³ The Baburnama Memories of Babur. Prince and Empeiror by Whiller M Thachston. Washington, D C. Oxford «Бобурнома», Порсо Шамсиев, Соддикмирзаев I-кисм. Ўзб, Дав, Наш. Т., 1948.

²⁴ L.E. (II p. 7)

" Beveridge, New Dehli (IOp)

Beverijda: As these gardens all lie along the bed of the torrent (sai) people call them the fine front of the coat.²

Tekstonda: It is a place whith good air, river banks are covered whith pleasent gardens, they call it pustini Besh Barah.³

Muallif Koson (xozirgi Kosonsoy) ni tasvirlab ana shu soy kirgoklaridagi maysazor utloklarni xuddi kuzichok terisining tovlanib jilovlanib turishiga qiyos kiladi. Tajimonlar Leyden-Erskin va Beverij xonim esa parchadagi pustini pesh barra iborasini maxsus tadqiq qilib unyng muqobilini berishga xarakat qilganlar va turli taxminlarni o'rtaga tashlaganlar. Bu jumlada muallif pustini pesh barra iborasini qo'llaganlari ko'rinib turibdi. Lekin tarjimondar pustini kalimasiga e'tibor qaratmaganlar aslida esa muallif keltirgan ibora, uning o'zi ta'kitlaganidek, xalq tiliga oid bo'lib, soy yokalarida yashnab turgan safolik boxchaLar shoirona tashbex bilan ko'zi terisidan uka tutilgan pustinga o'xshatilgan.

Shaxarlardan yana biri Kosondir. Axsining shimolida joylashgan. Kichikrog shaxar. Andijon suvi Ushdan kelganiday, Axsi suvi Kosondan keladi. Xavosi yaxshi yer. Safolik bog'chalari bor. Biroq safoli bogchalari deyarli soy yoqasida yastangani uchun oldi barra terili pustindeydilar.⁴

Quyidagi berilayotgan qisqa parchani uchala tarjimon ham ma'naviy iklimni (kontekst) xis qilmaganliklaridanmi yoki parda ostida yashirinib yotgan istiorini anglab olmaganliklaridanmi, matnda o'rin olgan xafrang piyola iborasini o'tira olmaganlar. Dalilga ashyo uchun asliyatga va tarjimalar ga e'tibor karatamiz.

Mirzokuli jolaga kelmay, tun ufrogi bila uzub chikdi, joladin chiqib, ul ogshom jolabonlarning uyiga kunduk. Biaynixa suvga borgon xafrang piyoladek Darvesh Muhammad peshkash kildi.¹

Leyden-Erskinda: Not being able to regain in raft, he (Mirzoquli) kept swimming in his gown and dress of honour till he reached the shore. On disembarking from that raft, we passed that night in the rafts - men s houses. Derwish Muhammad mfde me a present of a cup of seven colours, like that which had fallen owerboard.²

Parchadagi «xafrang» piyola o'rin olgan jumla qo'yidagicha agdarilgan:

Davresh Muhammad menga xuddi kema bortidan tushib ketgan yetti xil rangdagi piyoladek piyolani tortiq qildi. Asliyatda o'rin olmagan kema borti tusmollab jumлага qushib qo'yilgan hamda tarjimon muallif qo'llagan xafrang piyola istiorasini tushunib yetmagan.

Beverijda: Ne (Mirzoquli) swam in his tun (aufraghi q) and got out of the water whithout coming on the raft again. Leaving it that night, we slept at raftmens houses. Darwish Muhammad Sarban presented me with a seven coloured cup exactly like the one lost in the water.²⁵

Beverij xonim ham yukorida kayd etilgan jumlani Darvesh Muhammad sorbon aynan suvda yuqolgan piyoladek yetti xil rangli piyolani armug'on etdi deb o'g'irganda, u ham matndagi krchirimni payqamay qolgan.

Tekstonda: Ne (Mirzoquli) swam in all his clothes and got out of the water whithout coming into the raft, when we got off the raft, we were put up for the night in the raftmens houses. Darwesh Muhammad presented me with a porselain cup exactly like the one that had disappeared into the water.²⁶

«Boburnoma» da qullanilgan maqol, matal va iboralar qaysi yo'sinda qanaqa tarzda aks etganligini aniqlab olishimizga to'g'ri keladi. Bizga ma'lumki «Boburnoma» da muallif aksariyat xolatlarni taqqoslash orqali aks ettirgan. Boburga xos qiyosiy taxlil qo'yidagi misolda ham yaqqol ko'zga tashlanadi:

«Yana Xoja Ismoil va Dasht, Duki va Afgoniston tog'lari bir yo'sinlug tog'lardur. Past - past, o'ti oz, suyi tankis, yigochsiz, badnamoy, yaramas toglardir. Tolari ellariga moe tushubtur,

¹ The Baburnama. Memories of Babur. Prince and Empeiror by Whiller M. Thachston. Washington. D.C. Oxford Univ. «Бобурнома», Порсо Шамсиев, Соддиқмирзаев. I-қисм. Ўзб. Дав. Наш. Т., 1948.

²⁵ «Boburnoma», Porso Shamsiev, Soddiqmirzaev. I-qism. O'eb. Dav. Nash, T, 1948.

²⁶ The Baburnama. Memories of Babur. Prince and Empeiror by Whiller M. Thachston. Washington, D C Oxford Univ.

nechukkim, «teng bulmaguncha tush bulmas» debturlar. Olamda mundog yaramas vaz'lig tog'lar kam bulg'ay»²⁷.

Xaqiqatdan ham bu yurtning chiroyli bog' - rog'lari bilan birga usimliksiz, daraxtsiz toglari ham ko'p. Bobur ana shu toglar xakida «past - psat, o'ta oz, suyi tanqis» deb baxo berishi bejiz emas. Xar bir yangi joy keng va navoxiyga, dara, tog' va yurtga Bobur avvalo sarkarda kuzi bilan nazar tashlab, ming-ming askarlarni, ularning otlarini boqish uchun «oshligi mul», «suyi farovon» va «ot butuzi kalin bulishi uchun tabiiy resurslarni izlaydi. Mazkur bo'lgan tog'lar esa ana shu jixatdan kashshok, eli ham unga yov nazari bilan qarar edi. Bobur shu bois bu tog'larni shu yerlik odamlarga o'xshatib «teng bulmaguncha tush bulmas» deydi. Lekin tarjimonlar muallifning takkoshlash uslubini anglabetmaganlaridan, shu parchadan o'rin olgan matalni o'g'irishda kiyinchiliklarga duch kelganlar ana shu sabab, «teng bulmaguncha tosh bulmas» ni o'g'irishda xatolikka yo'l quyib teng so'zini tong bilan almashtirishgan. Natijada ma'noga putur yetgan. Matalni muqobili bilan berolmaganlar.

Leyden - Erskinda: A narrow place ia large to the narrow minded. Suzma-suz tarzda bu «Tor fikrli kishiga tor joy ham keng tuyiladi» demakdir.²⁸

Viler Tekston tarjimasidan ayni matal «There is no noon without a down » «Tong bo'lmasa, kunduz bulmas » deb o'g'irilgan, Chamasi, Tekston «teng »ni «tong» bilan chalkashtirib, «Tong otmaguncha tush (kunduzi)bulmaydi », degan makol o'ylab topgan. Okibatda, inglizabon o'kuvchi Bobur fikrinig okimini anglayolmay, to'saddan duch kelgan bu makolni matnga boglay olmaydi. Beverij xonim esa, matn ruxidan kelib chiqib, matalga yakin matal bilan o'g'irgan-«Their people take after them»Ey bizdagi «o'xshatmaguncha uchratmas»degan mataliga moe keladi.

